

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 37 (1098), 2024-yil 21-fevral, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

IJTIMOIY HIMOYANING YANGI TIZIMI
INSON QADRINI TA’MINLASHGA XIZMAT QILADI**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha farmon qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O‘tgan vaqt mobaynida o‘ndan ortiq davlatning tajribasi chuqur o‘rganildi, malakali ekspertlar jalb qilindi. Shu asosda olib borilgan tahlillarga ko‘ra, bu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug‘ullangan. Bu ayrim odamlarni o‘zini o‘nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o‘rgatib qo‘yg‘an.

Misol uchun, mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to‘lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o‘rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e‘tibor berilmagan.

Davlatimiz rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilliligi va natijadorligini ta‘minlash zarurligini ta‘kidladi.

— Bu sohada umumiy ishlab bo‘lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda bu boradagi ustuvor vazifalar belgilandi. Avvalo, ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi oylarda kam ta‘minlangan oilalar manzilli o‘rganilgani hamda tizim shaffof qilinishi natijasida doimiy daromadga ega oilalar bunday toifadan chiqarilgan. Aksincha, o‘zgarlar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz yashayotgan 2 ming kishiga yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Umuman, ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan bo‘lsa-da, mahalladagi aholi ularning yarmini ham bilmaydi.

Shu bois, 1-iyundan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o‘zgaradi. Bunday ehtiyojmand toifani aniqlash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqiladi va ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniqlab belgilab beriladi. Muhtojlarning har biri bo‘yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi bo‘ladi.

Bu borada yagona savolnoma joriy qilinadi. Xonadonga “mahalla yetiligi”ning qaysi vakili kirishidan qat’i nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, “ijtimoiy portreti” chiziladi. Yordamdan so‘ng xonadonda nima o‘zgargani monitoring qilib boriladi.

Bu yerda gap mablag‘ni qisqartirish haqida emas, uni o‘z egasiga — haqiqiy muhtojlarga berish va jamiyatga integratsiya qilish haqida ketmoqda.

Yana bir muhim jihati, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo‘lga qo‘yiladi. Bunda xizmat ko‘rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o‘ziga majburiyat oladi.

Endi nafaqa oluvchilar ro‘yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo‘q, boquvchisini yo‘qotgan, kasalligi va boshqa sababga ko‘ra uzoq muddat ishlash olmaydiganlarning oilalari kiritiladi. Boshqa fuqarolarni “ijtimoiy reyestr”ga kiritishda ularning faqat daromadida emas, balki xarajatlari ham baholanadi.

Shu yil 1-oktyabrda aholiga ko‘rsatiladigan barcha ijtimoiy yordamlar “ijtimoiy karta” orqali moliyalashtiriladi. Kelgusi yildan 40 ta tumanda reabilitatsiya, sog‘lomlashtirish va nogironligi borlarga qarovchilarni o‘qitish bo‘yicha ko‘p tarmoqli ijtimoiy xizmatlar markazlari ishga tushiriladi.

Yig‘ilishda nogironligi bo‘lgan insonlar manfaatlariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilgan. Bunday shaxslarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan.

Lekin ko‘p muassasalar, ko‘chalar va bekatlar imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishi uchun moslashmagan. Maktab va kollejlarda sharoit yo‘qligi sababli ota-onalar nogironligi bor farzandini uzoqdagi maxsus internatga joylashtirishga majbur. Bu oila va bola uchun juda og‘ir.

Shu bois, endi nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo‘yicha milliy tizim bo‘ladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga ishlab va kasb-hunarga o‘qishda to‘siqsiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechiladi. Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanadi.

Tuman markaziy shifoxonalarida tibbiy reabilitatsiya xonalari tashkil etiladi. Protez vositalari 18 turdan 30 turga, ajratilayotgan mablag‘ esa 1,5 barobar oshirilib, ular bilan ta‘minlash elektron shaklda bo‘ladi. Bunday vositalarni uydan turib, voucher orqali onlayn yoki “Inson” markazi yordamida istalgan ishlab chiqaruvchidan olish mumkin bo‘ladi.

Bino va inshootlarni qurish loyihaci nogironligi bo‘lganlar uchun qulay muhit yaratilganligi bo‘yicha ham majburiy ekspertizadan o‘tkaziladi. Jamoat transporti, bekatlar va chorrahalarida ular uchun to‘siqsiz muhit yaratish choralari ko‘riladi.

Xodimlarning 50 foizida nogironlik bo‘lgan tadbirkorlarga davlat buyurtmachilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish imkoniyati beriladi. Bunday shaxslarni kasbga

tayyorlaydigan 4 ta ixtisoslashgan maktab sanoat tarmoqlariga biriktiriladi. Nogironligi borlar kasanachilik va hunarmandchilik asosida yaratgan mahsulotlarni elektron platforma orqali sotish yo‘lga qo‘yiladi.

Sportni rivojlantirish assotsiatsiyasi tashkil etilib, nogironligi bor shaxslar mahalladan boshlab ommaviy sportga jalb qilinadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarda umid va o‘ziga ishonch uyg‘otadigan badiiy asarlar yaratiladi.

Ota-ona mehriaga muhtoj bolalarni tarbiyalash bo‘yicha ham vazifalar belgilandi. Endi joylarda vasiylik va homiylik masalalari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalar bilan mahalladagi ijtimoiy xodimlar shug‘ullanadi. Buning uchun hokimliklar huzuridagi Vasiylik va homiylik komissiyalari tugatilib, 1-avgustdan ularning vakolati “Inson” markazlariga o‘tkaziladi.

Yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramoqqa olish bo‘yicha “ixtisoslashgan tutingan oila” tizimi joriy etiladi. Ixtisoslashgan 160 ta ta‘lim muassasasida bosqichma-bosqich “g‘amxo‘rlik” guruhlar tashkil qilinadi.

Ota-onasidan ayrilgan yigit-qizlarga ko‘maklashish tizimi ham o‘zgaradi. Endi “Yoshlarga hamrohlik” dasturi asosida ularni qo‘llab-quvvatlash 23 yoshgacha etib belgilanadi.

Ichki ishlar tizimidagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari “Hayot maktabi” sifatida qayta tashkil qilinadi. Ular tarbiyasi og‘ir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo‘yicha kompleks xizmat ko‘rsatadigan maskana aylantiriladi.

Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga uy-joy berish tizimi ham qayta ko‘rib chiqiladi. Bunda “Inson” markazlari tomonidan haqiqatan uy-joyga muhtoj yoshlar ro‘yxati shakllantiriladi. Ularga beriladigan uy-joyning narxi bozor bahosidan kelib chiqib, hududlar kesimida belgilanadi.

Mutasaddilarga hozirda navbatda turgan yetim bolalarni uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Zo‘ravorlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar reabilitatsiya bilan yetarlicha qamrab olinmagani qayd etildi. Shu bois, bu borada mahalla darajasida alohida tizim yaratiladi. Qiyin vaziyatdagi yosh onalarni qo‘llab-quvvatlash, go‘daklar yetim qolishining oldini olish uchun “Onalar maskani” xizmati tashkil etiladi. Shuningdek, tuman shifoxonalarida zo‘ravorlikka uchraganlarga tibbiy va ruhiy yordam ko‘rsatish uchun tunu kun ishlaydigan xonalar ochiladi.

Yig‘ilishda Bosh vazir, soha mutasaddilari va hokimlar ishini tashkil etish rejalari yuzasidan axborot berdi.

— Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta‘minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag‘ishlashimiz kerak, — dedi Prezident.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI AMALIY
TASHRIF BILAN ROSSIYA FEDERATSIYASIDA BO‘LADI**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 21-fevral kuni “Kelajak o‘yinlari” musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahrida bo‘ladi.**

Tashrif dasturida ikki davlat rahbarlarining uchrashuvi ko‘zda tutilgan. Unda 2023-yil 5-7-oktabr kunlari Rossiya rasmiy tashrif yakunida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish hamda keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada

chuqurlashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Ta‘kidlash joizki, Rossiya Federatsiyasida ilk bor tashkil etilayotgan va 21-fevral — 3-mart kunlari bo‘lib o‘tadigan “Kelajak o‘yinlari” sportning an’anaviy turlari, ilmiy ishlanmalar va

raqamli texnologiyalarni o‘zida mujassam etgan musobaqadir.

Ushbu yirik sport tadbirida 107 ta mamlakatdan 227 ta jamoa, shu jumladan, O‘zbekiston sportchilari ishtirok etadi.

O‘ZA

Jamiyatimizning yangi qiyofasi

SIFATLI TA’LIM
BARCHAGA BAROBAR**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘tkazayotgan har bir yig‘ilishda xalqimiz yangiliklar, tashabbuslar, xushxabarlar eshitishga odatlanib qoldi va shuning uchun bu yig‘ilishlarni jamoatchiligimiz xayrixoh kutadigan bo‘ldi.**

Ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kecha bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ham deyarli barcha soha mutasaddilariga berilgan topshiriqlarni bir umumiylik bog‘lab turadi, bu — insonni ulug‘lash va uning manfaatlariga xizmat qilish sifatini oshirish.

Davlatimiz rahbari, ayniqsa, nogironligi bor kishilarga alohida e‘tibor

va g‘amxo‘rlik zarurligini ta‘kidlab, bu boradagi qator muammolarni sanab o‘tdi hamda ularning yechimi yuzasidan aniq mexanizmlar taklif etdi. Xususan, maktablar, professional ta‘lim muassasalarida sharoit yo‘qligi uchun 70 foiz ota-onalar nogironligi bor farzandlarini yashash joyidan uzoq maxsus maktab-internatga joylashtirishga majbur bo‘layotgani, imkoniyati cheklangan

bolalar boradigan 112 ta maktab va 74 ta bog‘chadagi ta‘lim dasturini qayta ko‘rib chiqish, maktablarni inklyuziv ta‘limga moslashtirish dasturini amalga oshirish muhimligi ta‘kidlandi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish, ishga joylashtirish va sportga jalb qilish bo‘yicha milliy tizim yaratilishi belgilandi.

Davomi 2-betda



Taraqqiyot yo‘li

YANA BESHTA QONUN JST
TALABLARIGA UYG‘UN BO‘LDI**O‘zbekiston qachon ushbu xalqaro tuzilmaga kirishi mumkin?**

Jahon savdo tashkilotining asosiy vazifasi — erkin va shaffof savdo munosabatlarini tartibga solish, uni kengaytirish orqali a‘zo mamlakatlar barqaror taraqqiyotini ta‘minlash hamda insonlar turmushini yaxshilash hisoblanadi. Bu tashkilotga bugungi kunda 164 davlat a‘zo va jahon yalpi ichki mahsulotining 95 foizi ular hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston tashqi tovar aylanmasining 97 foizi mazkur mamlakatlarning birgalikdagi ulushini tashkil etadi.

A‘ZO BO‘LISH
MURAKKAB JARAYON

Ma‘lumki, O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish uchun arizani 1994-yilda bergan. Lekin 2005-yildan keyin bu jarayon to‘xtab qolgan. Oradan 15 yil o‘tib, 2020-yilda ishchi guruh o‘z faoliyatini qayta tikladi. Uning tarkibiga 47 davlat kiradi, 31 tasi bilan faol muzokaralar olib borilmoqda.

Prezidentimiz o‘tgan yilning 19-sentabr kuni Nyu-Yorkda BMT Bosh assambleyasi 78-sessiyasida

so‘zlagan nutqida yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lish O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yo‘lidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanini alohida e‘tirof etdi. Ushbu sessiya doirasida JST bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala bilan uchrashuvda O‘zbekistonning tez fursatda JSTga a‘zo bo‘lishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilinib, ishchi guruhning navbatdagi yig‘ilishiga tayyorgarlikni jadallashtirish, mutaxassislar malakasini oshirish hamda qonunchilikni JST bitim va qoidalariga uyg‘unlashtirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Prezidentimizning JST masalalari bo‘yicha maxsus vakili Aziz O‘rinovning so‘zlariga ko‘ra, dunyodagi eng nufuzli iqtisodiy tashkilotga a‘zo bo‘lish O‘zbekiston uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Uchta asosiy yo‘nalish — milliy qonunchilik va amaliyotni JST qoidalariga uyg‘unlashtirish, ko‘p va ikki tomonlama muzokaralarni faollashtirish bo‘yicha jiddiy choralar ko‘rilmoqda. 2023-yil avgust oyining o‘zida 15 dan ortiq qonunchilik hujjatlari JST talablariga moslashtirildi.

Davomi 3-betda

ILMNI ALDAB
BO‘LMAYDI**yoxud fayz-u baraka fidoyilik ortidan keladi**

5

**BUGUN MA’NAVIYAT BOSHQA
SOHALARDAN O‘N QADAM
OLDINDA YURISHI KERAK**

6

Jamiyatimizning yangi qiyofasi

SIFATLI TA’LIM BARCHAGA BAROBAR



Hilola UMAROVA, maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda 415 ta an’anaviy maktabimizda 736 nafar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar mavjud bo‘lib, ularning boshqa tengdoshlari bilan integratsiyasi, munosib ta’lim olishi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ular boshqalardan kam emasligini, eng avvalo, o‘zlariga singdirish, jamiyatda o‘rin topishga loyiqqligini anglatish va ko‘maklashish uchun ham maxsus ta’lim muassasalariga emas, aynan odatiy maktablarga jalb qilganmiz. Endilikda mazkur maktablardagi sharoitlarni yanada yaxshilash va o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Yig‘ilishda, shuningdek, davlatimiz rahbari nogironligi bor yurtdoshlarimiz hayoti va erishgan yutuqlari to‘g‘risida ta’sirchan mediakontent, filmlar tayyorlash muhimligiga urg‘u berdi. Telekanallarda informatsion, ayniqsa, bolalar dasturlari efrining muayyan qismini surdotarjima, subtitr yoki “yuguruvchi satr”lar bilan namoyish etish zarurligi ta’kidlandi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan bugungi kunda o‘quvchilar uchun tarbiya, ilm-fan, ingliz tili, koinot, matematika, rus tili, tabiiy fanlar, texnologiya kabi sakkizta yo‘nalishda 120 ta ma’rifiy-tarbiyaviy multfilm surdotarjima bilan tayyorlanib, telekanallarga taqdim qilindi. Joriy yilda mazkur jarayon davom etadi va shu tariqa barcha o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan milliy kontentni boyitib borishga salmoqli hissa qo‘shish niyatidamiz.

Bundan tashqari, yig‘ilishda ota-ona mehriga muhtoj bolalarga g‘amxo‘rlik masalalari atroficha muhokama qilinib, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Ota-onasi migratsiyada bo‘lgan, noqulay ijtimoiy muhitdagi oilalarda tarbiyalanayotgan, ruhiy-jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga yordam tizimini takomillashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Ochig‘i, keyingi paytda biz alohida e’tibor qaratayotgan muhim masala — o‘quvchilarning maktabga to‘liq kelishini ta’minlashda ham ota-onalar mas’uliyati muhimligi oydinlashdi. Aytmoqchimanki, buvisi yoki boshqa qarindoshlariga qoldirib ketilgan bolalar darslarda muntaзам ishtirok etmayapti. Yo‘lga qo‘yiladigan yangi tizim bu borada bizning ishimizni yengillashtirishi shubhasiz.

Shuningdek, ixtisoslashgan 160 ta ta’lim muassasasida bosqichma-bosqich “g‘amxo‘rlik” guruhlari tashkil qilinadi. Ya’ni og‘ir kasalligi bor bolalarga shu guruhlarda qarash orqali, ota-onalariga ishlashi uchun sharoit yaratib berilishi ham e’tiborga loyiq.

Prezidentimiz o‘tgan haftada Andijon viloyatiga tashrifi chog‘ida ham maktab o‘quvchilari bilan uchrashishga vaqt topib, ular bilan samimiy suhbatlashib, ko‘plab muhim masalalarda mutasaddilarga aniq vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, o‘quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishi yuzasidan ishlar samaradorligini oshirish diqqat markazida bo‘ldi. Bu haqda gap ketganda Prezidentimizning joriy yil 2-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining xorijiy tillar va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan qarorga ko‘ra, 10-11-sinflarda tayanch o‘quv rejasii asosida o‘qitish bilan bir qatorda “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” hamda “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha ham ta’lim dasturlari joriy qilinadi. Bunda birinchi yo‘nalishda asosiy e’tibor aniq, tabiiy yoki xorijiy til fanlariga qaratiladi, ikkinchi yo‘nalish doirasida esa o‘quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasblarga o‘qitishga urg‘u beriladi. 10-11-sinflarda xorijiy tilni o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning akademik yozuv va so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori barcha o‘quvchilarga munosib sharoit yaratish va sifatli ta’lim berish bilan bunyod bo‘ladi. Mana shu yo‘lda bor kuch-g‘ayratimiz va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Munosabat

ANDIJON — TADBIRKORLAR YURTI

Ular yaratilayotgan sharoitdan foydalanib, ham aholini boy qiladi, ham hudud iqtisodiyotini ko‘taradi



Odinaxon OTAXONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Tadbirkorlik, hunarmandlik qon-qonimizga singib ketgan. Ishbilarmonlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar natijasi o‘laroq, olis va chekka hududlarda ham yangi korxonalar ishga tushirilmoqda, ishsizlik muammosiga aniq va manzilli yechim topilyapti.

Uzoqqa bormaylik, bundan yetti yil avval viloyatda sanoat, ishlab chiqarish korxonalarini barmoq bilan sanash mumkin edi. Birgina 2023-yilda investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati qariyb 690 million dollarga teng 433 ta loyiha amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarni ishga tushirish hisobiga 29,3 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratilgan.

Masalan, Shahrixon tumanida “Saxovat teks” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan umumiy qiymati 22,6 million dollarlik mato to‘qish, bo‘yash va sochiq ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilishi tufayli ming kishining doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi ta’minlandi. Bugun viloyatda bunday korxonalar soni juda ko‘p. Bu yurtimizda biznes vakillari uchun yaratilayotgan qulay tadbirkorlik sharoiti, imkoniyatlar samarasi, albatta.

Bundan 8 yil avval “Asaka tekstil” klasteri to‘qimachilik korxonasining o‘rni ko‘rimsiz joy edi. O‘tgan vaqt davomida bu yerda bosqichma-bosqich yangi binolar qurildi. Bugungi kunda 83

million dollarlik loyiha evaziga xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq ishlab chiqarish zanjiri tashkil etilgan. To‘g‘risi, 10 yil ilgari ham tumanda shunday katta korxona ishga tushiriladi, yoshlar, xotin-qizlar shu yerning o‘zida ishli bo‘ladi, shu orqali turmushi, yashash sharoiti yaxshilanadi, desa hech kim ishonmasdi.

Bular hali hammasi emas. Kelgusi yillarda klaster tomonidan Ulug‘nor tumanida 70 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash zavodi, tikuv-trikotaj va paypoq ishlab chiqarish korxonasi tashkil etish rejalashtirilgan. Ularda yana 1600 dan ziyod ish o‘rni ochiladi. Bu shuncha yoshlar ishli, daromadli bo‘lishini anglatadi.

Prezidentimizning shu yil 15-16-fevral kunlari hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Andijonga tashrifi viloyat ahlining kuchiga-kuch, g‘ayratiga-g‘ayrat qo‘shib, ularni yangi marralar sari ruhlantirib yubordi.

Andijon viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, turizm va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, odamlarning yashash sharoitini yaxshilashga doir masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuvda bevosita ishtirok etar ekanman, odamlar yuz-ko‘zida quvonch, ertangi kunga ishonch, yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik tuyg‘ularini ko‘rdim. Ochig‘i, juda ko‘p dilkash, samimiy suhbatlarning guvohi bo‘lganman. Lekin Prezidentimiz bilan bo‘lib o‘tgan muloqot bir umr yodimda qoladi, desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi, davlatimiz rahbarining har bir gapi aholi farovonligi, xalq manfaatini ta’minlashga yo‘g‘rilgan.

Ayni shu maqsadlar yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida viloyatda ishsizlik 9,1 foizdan 7 foizga tushdi. Aholining tadbirkorlikdan olayotgan daromadi 1,5 barobar oshdi. Bu g‘oyat quvonarli holat, albatta. Lekin bu ko‘rsatkichlar hali yetarli emas. Shu bois, yig‘ilishda yana 400 ming aholini kambag‘allikdan olib chiqish vazifasi qo‘yildi.

Oziq-ovqat sanoatiga xorijiy brendlar jalb etilib, Andijon tumanida yirik agrolgistika markazi qurilishi aytiladi. Daryo va zovurlar, ularning atrofi esa tadbirkorlarga ijaraga berilgan holda, parranda va baliq boqish yo‘lga qo‘yiladi. Aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali bandligini ta’minlash kambag‘allikka barham berishning eng to‘g‘ri va oqilona yo‘lidir. Axir yangi ish o‘rinlari minglab oilalarga daromad, baraka kiradi, degani-ku.

Samimiy muloqot davomida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar qo‘yildiki, bu hech birimizni befarq qoldirmaydi, aksincha, barchamizni ushbu jarayonda faol ishtirok etishga undaydi. Zero, biz, deputatlar amaliy sa’y-harakatlarimiz bilan viloyatning yangi bosqichdagi taraqqiyoti, ertangi istiqboli uchun hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Hozir viloyatimizning qaysi tumaniga yo‘lingiz tushsa, aholi yuz-ko‘zida ishchan kayfiyat va shukronalikni ko‘rasiz. Bugun bu yerda bo‘layotgan o‘zgarishu yangilanishlardan dilingiz yayraydi. Chunki jamiyat tubdan yangilanib, odamlar qalbi, ongu tafakkuri, shuurida, kundalik turmushiyu hayotida yangi nafas ufrumoqda.

Bunday yaratuvchanlik, bunyodkorlik ruhi yangi marralarni zabt etishga chorlaydi. Yurtdoshlarimizning ko‘zlaridagi quvonch, hayotidan mamnunlik, ayniqsa, yoshlarimiz nigohida barq urib turgan g‘ayrat-shijoat, ertangi kunga ishonch yulqinlari ularning porloq kelajagidan dalolat beradi.

Ha, 2023-yilda ham viloyatda bandlikni ta’minlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi. Jumladan, aholi bandligini ta’minlash dasturi doirasida barcha yo‘nalishlarda 531 ming 685 nafar ishsiz odam ishli, daromadli bo‘ldi. Ishsiz aholini kasb-hunarga tayyorlash va tadbirkorlikka yo‘naltirish borasidagi ishlar ko‘lami ham kengaydi. Xususan, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan 30 turdagi kasb bo‘yicha 15,1 ming ishsiz fuqaro kasbga tayyorlandi va o‘qitildi.

Mahallalardagi hokim yordamchilari ko‘magi bilan 279,4 ming fuqaro doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirildi. 6,9 ming kishi kichik biznes korxonalariga, 7,2 ming nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga, 3,9 ming nafari esa hunarmandchilikka jalb qilindi. Bundan tashqari, 35,6 ming fuqaroga dehqonchilik qilish uchun ijara asosida yer ajratildi.

Har oyning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish, odamlarni o‘ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadida hududlarda bo‘lib, saylovchilar bilan muloqotlar o‘tkazamiz. Ochig‘i, har gal borganimizda biror o‘zgarish yoki yangilanishning guvohi bo‘lamiz. Eng muhimi, odamlarning kayfiyati yuqori, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan mamnun.

Chunonchi, Shahrixon tumanidagi o‘zgarishu yangilanishlarni ko‘rib, hayratngiz oshishi tayin. Shubhangiz bo‘lsa, Shahrixonga bir keling, ko‘ring, tomosha qiling. Kechagi ko‘rimsiz va g‘arib qishloqlar o‘rmda bugun ko‘rkam va muhtasham bino-inshootlar, sport va madaniyat koshonalari, biznes taraqqiy etgan, odamlar hayoti shaharimikdan kam emas. Xullas, zamonaviy yashash uchun nimaiki zarur bo‘lsa, barchasi Shahrixon qishloqlarida ham bor. O‘n-o‘n besh yil avval xalqimiz orzu qilgan maishiy xizmat obyektlari, maktab va bog‘chalar, tibbiyot muassasalari bugun qishloqlarda qad ko‘targan, aholi xizmatiga shay.

Ishonchim komikli, davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi inson qadrini ulug‘lash, xalqni rozi qilish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yangi bosqichni boshlab beradi. Zotan, bu galgi tashrif, tom ma’noda, tarixiy voqea bo‘lib, avvalgilaridan butunlay farq qildi. Shunday ekan, belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini sifatli va yuqori saviyada ta’minlashda biz, deputatlar ham faol va tashabbuskor bo‘lishga burchlimiz.

Islohotlar samarasi



2023-yil yakuni bo‘yicha Qashqadaryo viloyatiga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni o‘ttiz uchtaga yetdi. So‘nggi bir yilda vohaga 377 million dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar jalb etildi. Bu ko‘rsatkichlar 2022-yildagidan 1,6 barobar oshdi. Shu bilan birga, o‘tgan yilda umumiy qiymati 354 million dollarlik 19 ta yirik loyiha ishga tushirildi.

O‘tgan yili olti mingta yangi kichik tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. Buning evaziga tadbirkorlik subyektlari soni 28 mingtaga yetkazildi. Misol uchun, Kitob tumanidagi “Qarshi konch sement” xorijiy korxonasining issiqlik bug‘idan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi 15 million dollarlik majmuasi, Yakkabog‘ tumanidagi “Rus dost tekstil” korxonasi tashabbusi bilan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan 10 million dollarlik fabrika, Qarshi shahrida “Alp texno servis” mas’uliyati cheklangan jamiyatining televizor ishlab chiqaruvchi to‘rt million dollarlik zavodi faoliyat boshladi.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 836,7 million dollarlik bir ming uch yuzdan ortiq o‘rta va kichik loyiha ishga tushirilishi hisobiga 16 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

— Islohotlar samarasida voha iqtisodiyoti yildan-yilga yuksalmoqda, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimining

o‘rinbosari — viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig‘i Olimxon Rustamov. — Bu kabi ishlarimizni 2024-yilda ham tizimli ravishda davom ettirgan holda xorijiy investitsiya va grantlarni jalb etish, eksport hajmini keskin oshirish borasida ulkan maqsadlar belgilab olingan.

Xususan, joriy yilda qiymati bir milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kredit jalb etib, yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga 16 mingta yangi ish o‘rni ochish rejalashtirilgan.

Ayni paytda istiqbolli rejalarni amalga oshirishga allaqachon kirishilgan. Jumladan, yaqinda Nishon tumanida Xitoyning “Chayna Gejoba” kompaniyasi tomonidan 200 megavatt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining birinchi bosqichiga start berildi. Kitob tumanida Avstriyaning “Lassensberger Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda mikrokalsitni qayta ishllovchi

korxonaga asos solinadi. Shu bilan birga, Qamashi tumanida ozarbayjonlik ishbilarmonlar tashabbusi bilan gips va gipsokarton tayyorlovchi “Matanat” sexi ish boshlaydi.

Shu o‘rinda, xalqaro hamkorlik borasida ham qilingan harakatlar yaxshi samara

berayotganini ta’kidlash joiz. Xususan, 2023-yilda Xitoyning Anxoy va Jiansu muzofotlari bilan do‘stona aloqalar o‘rnatildi. Shuningdek, viloyat vakillari Rossiyaning Qozon shahrida xalqaro forumda ishtirok etdi. Perm o‘lkasi va Nijniy Novgorod viloyatlarida amaliy tashrif bilan bo‘ldi.

Ko‘p yillar davomida Qashqadaryoda tashqi savdo aylanmasida import hajmi eksportdan ustunlik qilib kelgan. Mutaxassislar ta’kidlashicha, bu an’anaga chek qo‘yilib, 2023-yilda viloyatda ijobiy saldo qayd etilgan. Buni o‘tgan yilda viloyat tashqi savdo aylanmasi hajmida eksport ulushi 26 foiz ko‘payib, 771 million



dollarga yetganidan ham anglash mumkin. Tashqi savdo aylanmasi ijobiy saldosii 70,5 million dollarni tashkil etdi. Holbuki, Qashqadaryo eksporti va importida saldo oxirgi marta 2011-yilda qayd etilgan edi.

Eng ko‘p eksport Turkiya, Rossiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Pokiston va Yevropa Ittifoqi davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu qatorda eksport geografiasii kengaytirilib, xalqaro aloqalar yaxshilanib borishi evaziga 2023-yilda Portugaliya, Estoniya, Bangladesh, Marokash, Jazoir va Tunis kabi davlatlar bozoriga birinchi marotaba mahsulotlar eksporti yo‘lga qo‘yildi.

Endilikda viloyatning tuman va shaharlari salohiyatidan kelib chiqqan holda, drayver tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashtirilmoqda.

Xususan, Kitob va Dehqonobod tumanlari qurilish materiallari ishlab chiqarishga, Qamashi, Shahrisabz tumanlari va Shahrisabz shahri turizmga, Yakkabog‘ va Kitob tumanlari meva-sabzavotni qayta ishlashga, Nishon, Muborak va Kasbi tumanlari oziq-ovqat sanoatiga, Qarshi tumani, Qarshi va Shahrisabz shaharlari mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi.

Sirasini aytganda, o‘tgan bir yil davomida sohada bajarilgan ishlar viloyat iqtisodiyoti jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Asosiy maqsad esa aholi turmush farovonligini ta’minlash va ertangi kunga ishonchini mustahkamlashdan iborat.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Taraqqiyot yo‘li

YANA BESHTA QONUN JST
TALABLARIGA UYG‘UN BO‘LDIO‘zbekiston qachon ushbu xalqaro
tuzilmaga kirishi mumkin?Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yil noyabr oyida JSTning Jenevadagi bosh shtab-kvartirasida ishchi guruhning 7-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Aziz O‘rinovning yig‘ilishdan keyin OAVga bergan intervyusida qayd etilishicha, 8 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo‘yicha hamma shartlar kelishib olingan. Xususan, uzoq davom etgan muzokarlardan keyin Yaponiya, Saudiya Arabistoni bilan tovar va xizmatlar bozoriga chiqish bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash to‘g‘risida bayonnoma imzolangan.

Har bir yig‘ilish va muzokaralarni o‘tkazish murakkab jarayon. Tashkilotga a’zo bo‘lgan qaysi davlat bo‘lmasin, ular oxirgi daqiqalargacha muzokaralar olib borib, o‘zlarining shartlarini qo‘yishga va o‘tkazishga harakat qiladi. Bu faqat O‘zbekistonga nisbatan emas, balki barcha mamlakatlarga munosabat shunday bo‘ladi.

JSTga a’zo bo‘lish o‘rtacha 10 yildan ortiq vaqtini oladi. Misol uchun, qo‘shni Qozog‘iston tashkilotga 13 yil ichida kirgan. Shunday gap bor: “JSTga qancha kech a’zo bo‘lsang, kirish jarayonlari shuncha qiyin kechadi”. O‘zbekistonning tashkilotga kirish jarayonidagi 15 yillik to‘xtalishni inobatga olmasak, 10 yilga yetmasdan a’zo bo‘lamiz. Bu uchun yetarli ishlar qilinmoqda.

Iqtisod fanlari doktori, professor Jasurbek Otaniyozovning ta’kidlashicha, O‘zbekistonning JSTga kirishi jarayoni 15 bitimda belgilangan majburiyatni yuklaydi. Ular qamrovli va murakkab bo‘lib, keng doirada jahon savdosi masalasini o‘z ichiga oluvchi yuridik hujjatlarga tayanadi. Mazkur bitimlar a’zo mamlakatlar tashqi savdo salohiyatini oshirishga qaratilgan diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, savdo to‘siqlarini bartaraf etish, raqobatbardoshlikni oshirish, yetarli darajada rivojlanmagan davlatlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, savdoni tarif usullari bilan tartibga solish, uning halolligi kabi muhim tamoyillarga asoslanadi.

— Bu jarayonda bojxona-tarif, fiskal tartibga solish va eksport-import jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish, ularni soddalashtirish ham muhim o‘rin tutadi, — deydi Bojxona instituti dotsenti To‘liq Pardayev. — Masalan, tarifga oid yon berishlar bo‘yicha muzokaralar davomida tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining har bir pozitsiyasi (ularning soni 11 ming 250 ta atrofida) bo‘yicha “bog‘lanadigan” jihatlar muvofiqlashtirilishi lozim. Moslashuv davrida O‘zbekiston tariflarni ulardan yuqori ko‘tarimlik majburiyatini o‘z zimmasiga oladigan bojxona bojlarining eng yuqori chegarasi ham aniqlab olinadi.

XALQARO ME‘YORLARGA
MOSLASHAYOTGAN
QONUNLAR

O‘tgan haftada “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur

huquqiy hujjatni ekspertlar va ommaviy axborot vositalari vakillari JSTga kirish yo‘lidagi yana bir muhim qadam sifatida baholamoqda.

Qonun bilan “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi, “Reklama to‘g‘risida”gi, “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi va “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Ular Jahon savdo tashkilotining “Intellectual mulk huquqlarining savdo yo‘nalishlari bo‘yicha bitimi” (TRIPS bitimi) talablariga uyg‘unlashtirildi.

Ma‘lumki, TRIPS bitimi JSTning asosiy hujjatlaridan biri. U 1995-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. JSTga a’zo davlatlar tomonidan intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish bo‘yicha minimal talablarni belgilovchi bitim hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar ushbu bitimga JSTning 164 a’zo davlatlarining barchasi qo‘shilgan.

Ekspertlar fikricha, JST huquqiy tizimining xalqaro savdoni tartibga solib turuvchi asosiy moddiy normalarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin: diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiluvchi qoidalar (milliy va eng qulay rejim); bozorga kirish qoidalar (tariflar va tarif bo‘lmagan choralar); savdoni erkinlashtirishni boshqa ijtimoiy qadriyatlar va manfaatlar bilan muvozanatlash tartiblari; adolatsiz savdo bilan bog‘liq qoidalar

Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi raisi Erkin Gadoyev. — Mazkur me‘yor yillar davomida (3 yoki 4 yildan buyon) sanoat ishlab chiqarishga joriy qilinmagan ixtirolar yoki foydali modellarni amaliyotga joriy qilishni ta‘minlashga, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Yana bir muhim jihati, ixtiro va foydali modellarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda II guruh nogironlariga belgilangan patent bojining 90 foizi, ta‘lim oluvchi shaxslarga, ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlarga 30 foizi, yuridik shaxs bo‘lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga, davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan ta‘lim tashkilotlariga va ilmiy tashkilotlarga 25 foizi miqdorida imtiyozlar beriladi.

Shuningdek, mazkur qonunga kiritilayotgan qo‘shimchalar asosida, agar patentni huquq egasining ruxsatisiz mamlakatdagi favqulodda vaziyatlarda yoki boshqa oxirgi zarurat holatlarida foydalangan taqdirda ham davlat huquq egasiga mutanosib ravishda tovon to‘lashni ta‘minlashi nazarda tutilmoqda.

“Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunga ham o‘zgartirishlar kiritilayotgan bo‘lib, bu jihatlar JSTning TRIPS bitimi moddasida qayd etilgan Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasiga muvofiqlashtirilmoqda.

“Reklama to‘g‘risida”gi milliy qonun Jahon savdo tashkilotining Xizmatlar savdosi bo‘yicha

WORLD TRADE
ORGANIZATION

O‘tgan yil noyabr oyida JSTning Jenevadagi bosh shtab-kvartirasida ishchi guruhning 7-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Aziz O‘rinovning yig‘ilishdan keyin OAVga bergan intervyusida qayd etilishicha, 8 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo‘yicha hamma shartlar kelishib olingan. Xususan, uzoq davom etgan muzokarlardan keyin Yaponiya, Saudiya Arabistoni bilan tovar va xizmatlar bozoriga chiqish bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash to‘g‘risida bayonnoma imzolangan.

(demping va subsidiyalari); maxsus sohalarda milliy qonunchiliklarni uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadigan tamoyillar (savdodagi texnik to‘siqlar, sanitariya va fitosanitariya choralarlari, intellektual mulkni himoya qilish).

Prezidentimiz Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya va muzokaralar guruhi zimmasiga aniq vazifalarni belgilab bergan. Erishilishi lozim bo‘lgan maqsadlar qo‘yilgan.

— TRIPS bitimi talablariga binoan, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunda sanoat mulki obyektlarini patent egasi foydalanmagan yoki yetarli darajada foydalanilmagan taqdirda

bosh bitimida nazarda tutilgan me‘yorlar bilan o‘zaro muvofiqlashtirilib, erkin raqobat muhiti yaratilishiga huquqiy asos bo‘ladi. Xususan, qonunga kiritilayotgan o‘zgartirish to‘g‘shimchalarga asosan, chet elda ishlab chiqarilgan pivo, tabiiy va ko‘piklanadigan vinolarni reklama qilish yuzasidan cheklov bekor qilinib, bu bilan bozorda raqobat muhiti yuzaga kelishiga zamin yaratilmoqda.

TRIPS bitimining 39-moddasida ma‘lum bir dori vositasini yaratish jarayonida o‘tkaziladigan tadqiqotlar tufayli olinadigan klinik oldi va klinik sinovlar natijalarining himoya qilinishini hamda nohalol raqobat shaklida foydalanilmasligini ta‘minlash



uni ishlatishni xohlovchi shaxs patent egasi bilan maqbul tijorat shartlari asosida litsenziya shartnomasi tuzishi, agar patent egasi shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda sudga murojaat qilish tartibi belgilanmoqda, — deydi Oliy

nazarda tutilgani inobatga olinib, “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga ushbu talabdan kelib chiqilgan holda qo‘shimcha me‘yorlar kiritilmoqda. Unga ko‘ra, farmatsevtika



sohasiga klinik tadqiqotlardan oldingi va klinik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha olingan ma‘lumotlarni samarali himoya qilish mexanizmini joriy qilish orqali original dori vositalari ishlab chiqaruvchilarning huquqi himoya qilinmoqda. Bu, o‘z navbatida, xorijiy davlatlarning yirik farmatsevtika kompaniyalari tomonidan O‘zbekistonda original dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish sonining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh bitimi talablariga muvofiq, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun o‘rnatilgan davlat boji miqdorini O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari ta‘sischiligidagi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun belgilangan davlat boji miqdori bilan birxillashtirish maqsadida “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Unga asosan, patent boji to‘lovchilari sifatida ko‘rsatilgan rezident va norezident mos ravishda jismoniy va yuridik shaxs, deb o‘zgartirilmoqda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun davlat boji stavkasi bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobaridan 1 barobarga tushirilmoqda.

Qonunda ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini huquqiy muhofaza qilish uchun patent berishga, rasmiy ekspertiza o‘tkazishga va ma‘lumotlarni e‘lon qilishga talabnoma berish uchun davlat bojlari miqdorlari ham TRIPS bitimi talablariga uyg‘unlashtirilmoqda. Ya‘ni JST talabiga ko‘ra, har bir a’zo mamlakat boshqa a’zo davlatlarning fuqarolariga intellektual mulkni muhofaza qilish bo‘yicha o‘z fuqarolariga taqdim etganidan kam bo‘lmagan qulay rejimni taqdim etishi ko‘zda tutilgan me‘yorlar qonunda inobatga olinmoqda.

Shu o‘rinda o‘tgan yilning 15-avgust kuni Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi farmoni imzolanganini qayd etish joiz bo‘ladi.

— Unga binoan, 2024-yildan boshlab alohida davlatlardan olib kiriladigan mahsulotlarning muvofiqligini majburiy baholashdan ozod etish tartibi bekor qilindi, import tovarlarni davlat tilida markirovka qilish tartibiga o‘zgartirish kiritildi, — deydi huquqshunos Shokir Toshqulov. — Bunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha import qilinadigan iste‘mol tovarlarining ayrim turlari (iste‘mol qadoqlariga ega bo‘lmagan hamda o‘z ehtiyoji uchun olib kelingan tovarlardan tashqari) ishlab chiqaruvchi, uning vakolatli vakili va import qiluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) markirovka qilinmagan taqdirda, mazkur tovarlarga muvofiqlik sertifikatida hamda sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish taqiangladi. Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini olib kirishda bojxona qiymatining 1,2 foizi miqdorida bojxona rasmiylashtiruvchi yig‘imi bekor qilinishi belgilandi. Mazkur farmonda ko‘zda tutilgan me‘yorlar 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirdi, qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar esa 2025-yil 1-yanvardan amal qila boshlaydi.

Bundan tashqari, farmonning mantiqiy davomi sifatida o‘tgan yilning 21-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining ayrim hukumat qarorlarini JST bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, yuridik maslahatchilar tashkiloti avval faqat xorijiy davlatlar huquqi bo‘yicha maslahat berishi belgilangan bo‘lsa, endilikda ular xalqaro huquq bo‘yicha ham maslahat berishi mumkinligi belgilandi. Shuningdek, standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va qo‘llashda JST Savdodagi texnik to‘siqlar kelishuvining vijdonan yondashish amaliyoti kodeks talablari bajarilishini ta‘minlashi ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu kodeks milliy standartlar xalqaro standartlarga asoslanishi va ularni belgilashda ochiqlik hamda JSTning “eng qulay rejim” (Most Favored Nation) va



“milliy rejim” (National Treatment) tamoyillari qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Prezidentimizning o‘tgan yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, 2023-yil 1-iyuldan JST qoida va me‘yorlariga muvofiq bo‘lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taqiqlanishi belgilab qo‘yilgan.

BU BIZGA NIMA BERADI?

Avvalgi sharhlarimizda ham JSTga a‘zolik O‘zbekistonga qanday manfaat keltiradi, degan savolga kengroq javob berishga intilgan edik. Mutaxassislar fikrlarini muxtasar eslasak, JSTga kirish O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli turki beradi. Avvalo, yangi sarmoyalar asosida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulot sifatini oshirib, dunyo bozorida kuchli raqobatga ko‘nikadi. O‘z navbatida, iste‘molchilar arzon va sifati tovarlar hamda xizmatlarni tanlash imkoniga ega bo‘ladi.

Aksariyat manbalarda Jahon savdo tashkilotiga kirishning yuqoridagi kabi afzallik tomonlari bilan birga, uning bir qator kamchiliklari ham bor, degan fikrlar mavjud. Tashkilot faoliyati bo‘yicha xalqaro ekspert Yovan Yekich ushbu tanqidiy fikrlarning ayrimlari to‘g‘ri emasligiga e‘tibor qaratadi. Misol uchun, keng tarqalgan fikrlardan biri bu tashkilotga a’zo bo‘lgandan keyin import tariflari (boj)ning avtomatik ravishda pasayishi bilan bog‘liq. Ekspertning fikricha, aslida, unday emas. Chunki bunday pasayish hamma

tovarlar uchun tatbiq etilmaydi. Agar keyingi paytdagi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidan o‘rin olgan tovarlar ro‘yxatida 11 ming 295 nomdagi mahsulotlar mavjud bo‘lsa, ularning har biri bo‘yicha alohida muzokaralar olib boriladi. Maqsad — ta’sirchan tovarni aniqlash. Ya‘ni shunday tovarlar borki, ularning boj stavkalari muayyan davlat iqtisodiyotiga hech qanday salbiy ta’sir qilmaydi. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun subsidiya taqianglaman, ammo a‘zolikka qabul qilish jarayonida kelishilgan miqdordan oshmasligi lozim.

To‘g‘ri, JSTga a‘zolikning dastlabki davrida tashqi bozordan tovarlar oqimi ko‘payishi tufayli tariflar pasayishi O‘zbekistonda mahalliy ishlab chiqarishning zaif tarmoqlariga salbiy ta’sir qilishi ehtimoldan yiroq emas. Shu bois, yangi sharoitga muammisiz o‘tishni ta‘minlash va O‘zbekistonda milliy korxonalarni tashqi raqobat sharoitiga bosqichma-bosqich tayyorlash uchun yangi muhiti yaratish zarur bo‘ladi. Xorijiy kompaniyalarning O‘zbekiston bozoriga kirishi bilan tariflarning bosqichma-bosqich pasaytirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologik va kadrlar bazasini takomillashtirish orqali sifatini oshirish, korxonalarning narx siyosatini qayta ko‘rib chiqishi hamda iste‘molchilarning didi va ehtiyojini tizimli ravishda o‘rganish uchun tayanch vazifasini o‘taydi.

Ekspertlar tomonidan JSTga 1990-yildan keyin a’zo bo‘lgan Albaniya, Bahrayn, Bangladesh, Kamerun, Gruziya, Gonduras, Iordaniya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Nepal, Rossiya, Shri-Lanka, Turkiyaning eksport va import, YIM o‘sishi, inflyatsiya, ishsizlik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning YIMdagi ulushi hamda ishlab chiqarish sanoatining milliy iqtisodiyotdagi hisssasi kabi makroiqtisodiy



ko‘rsatkichlari o‘rganilganda, ushbu mamlakatlarning 12 tasida eksportning, 10 tasida esa YIMning o‘sish sur‘ati tezlashgan, 12 tasida inflyatsiya sekinlashgan va 10 tasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ko‘lami oshgani kuzatilgan. Bangladesh, Gonduras, Turkiya va Kamerun aksariyat yo‘nalishlar bo‘yicha ijobiy natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, salbiy tendensiya hisoblangan ishsizlik darajasi 10 tasida o‘sgan. Masalan, Bangladeshda ishsizlik 2,3 dan 3,5 foizga, Gondurasda 3,4 dan 4,4 foizga, Qirg‘izistonda 6,8 dan 8,7 foizga oshgan. Ushbu mamlakatlarning 2 tasida ishlab chiqarish sanoatining YIMdagi ulushi oshgan bo‘lsa, 6 tasida kamaygan.

Tashkilotga a’zo bo‘lgan Qozog‘iston, Turkiya va Gruziyaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar JSTga a’zo bo‘lmagan mamlakatlardagi jarayonlar bilan qiyoslanganda, sezilarli ijobiy o‘zgarish faqat eksport va importda ro‘y bergan. Qolgan yo‘nalishlardagi ko‘rsatkichlar deyarli farq qilmagan. Masalan, Qozog‘iston JSTga a’zo bo‘lgandan keyin ishsizlik darajasi 5,3 dan 4,9 foizga, Ozarbayjonda 5,2 dan 4,9 foizga kamaygan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori Obid Hakimovning fikricha, O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lgach, savdo xarajatlarining qisqarishi, buning natijasida YIM va aholi farovonligi (real daromad) sezilarli darajada oshishi kutiladi. Xususan, savdo liberalashtirilgan holatda 0,4-0,5 foiz iqtisodiy o‘sishga, farovonlikni esa 0,9-1 foiz darajasida oshirishga erishish mumkin.



KIMDIR IMKON, KIMDIR BAHONA TOPADI

Azim Buxoroning olis Vobkent tumani haqida eshitmagan kishi bo‘lmas kerak. Chunki bu manzilning sho‘rdanagi, quruq mevalari, shirinliklariyu hunarmandlik mahsulotlari azaldan ma’lum va mashhur.



Qishloq ayollari ushbu mahsulotlarni tayyorlashda bir xonadonga yig‘ilib, laparxonlik bilan mehnat qilishni odatga aylantirgan. Ular qishni sovuq, yozni issiq, deb o‘tirmaydi. Eplagan imkon topadi, eplamagan bahona, deya tabiatning to‘rt faslida ham tinim bilmaydi.

Shakarkent mahallasida 4500 dan ziyod aholi istiqomat qilayotgan bo‘lsa, ular “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida o‘z tomorqasida istalgan faslda mo‘l hosil yetishtirishning hadisini olgan. Pomidor, bodring, kartoshka, karam va boshqa sabzavot mahsulotlari, to‘qsonbosti ekinlar, qolaversa, ko‘kat yetishtirib, mo‘may daromad olish, erta bahordan aholi tomorqalari uchun issiqxonalarda ko‘chat yetishtirib sotish borasida ham katta tajribaga ega.

Necha yildirki, bu hudud aholisi o‘z issiqxonalarda yetishtirgan barakali hosilni qo‘shni tumanlar bozorlarida ham sotib, yaxshi daromad olgani.

Yuqori Xalash qishlog‘ida yashovchi Ramziya Toshveva bu borada ko‘pchilikka namuna bo‘lmoqda. Tomorqasida kartoshka, piyoz, pomidor, bodring va turli ko‘katlar bilan birga, sitrus mevalar yetishtiradi.

— Chog‘roqqa hovlimiz etagida issiqxona tashkil qildik. Hozirgi kunda bu yerda 30 tup limon, 6 tup mandarin, 6 tup apelsin mevaga kirgan, — deydi Ramziya Toshveva. — Limonning sovuqqa chidamli va hosildor navlaridan o‘tqazganmiz. Issiqxonamizda ortiqcha yoqilg‘i ishlatilmaydi. Izg‘irinli turlarda

isiriq solib tutatamiz, bu esa ko‘chatlarni sovuq urishdan asraydi. Bir parcha yerdan topayotgan daromadimiz orqasidan yaxshi hayot kechiryapmiz. Birovdan kam joyimiz yo‘q. Aytishadi-ku, ishlagan xor bo‘lmas, deb.

Shohnigor mahallasi esa tuman markazidan 13 kilometr olisda joylashgan. Mahallada 2200 ga yaqin aholi yashaydi.

Bu mahallada barpo qilingan issiqxona xo‘jaliklarida ayni qish paytida ham istalgan poliz mahsulotlarini sotib olishingiz mumkin. Tomorqa mehnatida mushitni bir yerga uradigan shohnigorliklar tinim bilmay ishlaydi.

Mahallada tashkil qilingan issiqxonalarda yoki ochiq maydonda “duga”li sim tortib, plyonka ostida pomidor, bodring, kartoshka va ko‘katlaru sabzi, bqlajlonlarga peshma-pesh yetishtirilib, ro‘zg‘or ehtiyoji uchun jamg‘ariladi.

— Vobkent tumanining ikkinchi sektoridagi mazkur mahallamizda mavjud har qarich tomorqa yeri daromad manbai sifatida alohida qadr-qimmatga ega. Chunki tomorqa yoxud undagi issiqxona vaqt o‘tishi bilan barqaror daromad manbaiga aylanishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, o‘tgan yili hududda ijtimoiy muhofazaga olingan 621 ta daromadli yetarli bo‘lmagan oildan 589 tasining moddiy sharoiti ularni ish bilan band qilish, takroriy ekin uchun yer maydonlari berish, imtiyozli kredit mablag‘i ajratish va boshqa turdagi yordamlar ko‘rsatish hisobidan yaxshilangani sababli “Temir daftar” ro‘yxatidan



chiqarildi, — deydi Vobkent tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari Shuhrat Sharopov. — Usmon Rajabov oilasi necha yildirki, o‘z tomorqasida halol mehnat qilib, mo‘l-ko‘l hosil olishning uddasidan chiqyapti. Xonadon sohibi tijorat bankidan 220 million so‘m imtiyozli kredit olib, tomorqasida issiqxona barpo etdi. Qish-qirovli kunlarda ham mirishkor oila 60 sotixdan iborat issiqxonasida pomidor va bulg‘or qalampir parvarish qilmoqda.

Chindan ham o‘z yeringda bosil yetishtirishning huzuri va barakasi o‘zgacha bo‘ladi. Tomorqada qilingan mehnat ro‘zg‘orning g‘orini to‘ldirib, oiladagi yetishmovchiliklarga ham barham beradi.

— Issiqxonamizda pomidorning “Chinto”, “Adriatika” va “Alamina”, bodringning esa “Pantino” navi bilan birga, bulg‘or qalampirining ham bir necha sara navlaridan 20 ming tuggacha ko‘chat parvarishlayapmiz. Issiqxona xo‘jaligini dastlab bir sotixdan boshlab, sekin-asta kengaytirdik. Ro‘zg‘ordan ortirgan mahsulotimizni el dasturxoniga yetkazib, qo‘shimcha daromad ola boshladik, — deydi ham dehqon, ham tadbirkor Usmon Rajabov. — 2023-yilning kech kuzida bulg‘or qalampirilaridan 80 million, 5 sotixda yetishtirilgan pomidordan 50 million so‘m daromad oldik. Umuman, bir yillik mehnatimiz mahsulini hisob-kitob qiladigan bo‘lsak, 250 million so‘m atrofida foydaga erishibmiz.

Ayni damda Usmon Rajabov xo‘jaligida yetishtirilgan bulg‘or qalampir va pomidor hosilining har kilosi 135 ming so‘mdan sotilmoqda. Endi ro‘zg‘orga kirayotgan barakani o‘zingiz chamalab olavering.

Mehnatning rohati, xonadonning barakasi yerdan, degan hikmatning chin ma‘nosini o‘z tomorqasidan hosil olayotganlar yaxshi biladi. Shu bois, vobkentliklar hayoti tobora farovon va dasturxonini to‘kin bo‘lib bormoqda.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YOQILG‘ISIZ ISITILADIGAN ISSIQXONA

O‘tgan qish mavsumida ro‘y bergan anomal sovuq natijasida aksariyat issiqxonalardagi sabzavot va sitrus ekinlari nobud bo‘lgani hech kimga sir emas. Biroq Toshloq tumani “Varzak” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi tomorqasidagi issiqxonalarda bunday bo‘lmadi. Nima uchun?

Mahallada issiqxonalarini kuz-qish mavsumida isitishda oddiy kigizlardan foydalaniladi. Bir sotix issiqxona uchun 70 kvadrat metr kigiz talab etiladi. Bu samarali usul issiqxonadagi havo haroratini 10-15 darajagacha iliq holda ushlab turish imkonini beradi. 3 kvadrat metr o‘lchamdagi bir dona kigiz tayyorlash uchun o‘rtacha 25 ming so‘mlik xomashyo kerak bo‘ladi. Mahallaning deyarli har bir xonadonda kigiz tayyorlanishi hisobga olinsa, kamxarj va samarali usulning afzalliklarini chamalash qiyin emas.

Adhamjon Azimov bu borada ko‘pchilikka ibrat bo‘lib kelayotgan mirishkorlardir. U tomorqasida 3 sotix yoqilg‘isiz isitiladigan kigiz to‘shamali issiqxonada limon va ko‘kat yetishtirish hadisini olgan. Tartib bilan ekinlar nihollar rivojlanishdan to‘xtagan yo‘q. Kelayotgan daromad salmog‘i ham chakkli emas. O‘tgan mavsumda 1 tonnadon ortiq limon olib, daromad salmog‘i 30 million so‘mdan oshgan.

— Kuz-qish mavsumida sabzavot, sitrus meva yetishtirish va qashlshda kigizdan foydalanish har jihatdan qulay, — deydi tomorqachi ekinlar orolab. — Ayni kunlarda ko‘katning to‘rtinchi hosilini bozorga chiqaryapmiz. Yangicha usulda ish olib borishda tabiiy gaz va ko‘mir bilan bog‘liq ortiqcha sarf-xarajat va qimmat isitish tizimlaridan foydalanishga hojat qolmaydi. Kigiz ekinlarni sovuq harorattan erta ko‘klamga qadar ishonchli himoya qila oladi. Qolaversa, qish sovuq‘iga chalinnagan nihollar ko‘klamda yaxshi rivojlanadi, hosildorlik salmog‘i yuqori va sifatli bo‘ladi.

Abdurahmon Xolmatov 2,5 sotix kigiz to‘shamali issiqxonada sarxil sabzavot ko‘chatlari yetishtirish hadisini olgan. O‘tgan mavsum mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 30 million so‘mlik imtiyozli kredit hisobiga mo‘j‘az issiqxona qurdi. Ekinlarni sovuqdan saqlab, hosil yetishtirishda kigizdan foydalanadi. Shu kunlarda kigiz to‘shalgan issiqxonada 300 ming tupdan ortiq pomidor va bulg‘or qalampir ko‘chatlari parvarishlanayapti. Dastlabki



Sherzod Qoraboyev olgan surat.

hisob-kitoblarga ko‘ra, birinchi hosilning o‘zidan 90 million so‘mdan ortiq daromad olish ko‘zda tutilgan.

— Prezidentimiz raisligida agrar sohadagi ustuvor vazifalar va rejalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda yoqilg‘isiz isitiladigan ixcham issiqxonalar barpo qilish, ushbu tajribani qo‘llab-quvvatlash va imtiyozli sarmoyalar ajratish borasida bildirilgan fikr-mulohazalar yangi tashabbuslarga qanot bo‘lmoqda, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Abdug‘ani Sulaymonov. — Mahallamiz hunarmandchilik va tomorqachilikka ixtisoslashgan. Bugungi kunda hududdagi 80 dan ortiq xonadonda umumiy maydoni 1,5 gektardan ziyod yoqilg‘isiz isitiladigan kigiz to‘shamali ixcham issiqxonalar bor. O‘tgan yilning o‘zida bu yo‘nalishda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan tashabbuskorlarga barcha yo‘nalishlar bo‘yicha 1 milliard 300 million so‘mlik imtiyozli kredit mablag‘lari berildi. Bundan tashqari, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz yoshlar, xotin-qizlar subsidiya asosida 450 million so‘mlik tikuv mashinalari, motokultivator va boshqa maishiy texnika vositalari bilan ta‘minlandi. Birinchi guruh nogironi Qurbonali Olamovga bir sotix issiqxona qurib berildi. Ayni paytda Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, qo‘llab-quvvatlash, moddiy va ma‘naviy ko‘mak berish bilan bog‘liq ishlarga alohida e‘tibor qaratyapmiz.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



HAMMA YO‘LLAR MAHALLADA TUTASHADI

Qang‘lida qulupnaychilik qanday qilib “o‘sish nuqtasi”ga aylandi?

Yaqinda bir guruh yo‘lovchilarning qaysidir mahalladagi o‘zgarishlar haqida miriqib suhbatlashayotganiga guvoh bo‘lib qoldim. Buyog‘i endi kasb kasalligi, mavridini topib, ulardan o‘sha mahalla nomini so‘rab oldim. Sharof Rashidov tumanidagi Qang‘li mahallasi ekan. Bordim.

Dastlabki suhbatdoshim “Qang‘li” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Asad Toshmurodov bo‘ldi. Kimligim, nima maqsadda kelganimni bilgach, mahalla idorasiga taklif qildi.

— Mahallamiz haqidagi e‘tirof, ochig‘i, menga yoqdi, lekin bu maqtanishga hech qanaqa asos bo‘lmaydi, — deydi A.Toshmurodov. — Chunki bugun yurtimizning barcha mahallalarida hayot qaynayapti. “Mahalla yettiligi” tinmayapti, boshqalarni ham tindirmayapti. Ya‘ni kimning qanday muammosi yoki iqtidori bor, hududda tadbirkorlikning qaysi yo‘nalishini rivojlantirsa bo‘ladi, bunga kimlarni jalb qilish kerak, yana kimlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish uchun kredit olishga ko‘maklashish kabi masalalar. Ochig‘i,

undan mo‘l hosil olishning o‘ziga

ushbu mevani yetishtirishning hadisini oldi.

Yulduz Jabborova qulupnaychilik borasida mahalladagi yetakchilardan biri ekan. U bilan suhbatimiz bu sohaga kirib kelishiga nima sabab bo‘lgani haqidagi savoldan boshlandi.

— O‘tgan yili qish faslida turmush o‘rtog‘im bilan Turkiyaga sayohatga bordik, — deydi u. — Anqara bozorlarini aylanib yurib, meva rastalarida go‘yo yoz fasliga tushib qolganday bo‘ldik. Turfa mevalar orasida qulupnayning hidi o‘zgacha, olmosday tovlanib turardi. Biz undan yarim kilo xarid qilib, chekkaroqda yeb oldik. O‘shanda hovlimizda issiqxona qurib, farzandlarimiz uchun qulupnay yetishtirishni maqsad qilgandim.

Har bir mevali o‘simlikni yetishtirish, undan mo‘l hosil olishning o‘ziga



bu taxlit yangi tartib va talablarda ishlash biz — raislarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, shaxsan o‘zimning bugungi kun faoliyatimdan misol: qariyb ikki soat bo‘ldi, xonada o‘tiribman. Hech kim eshigimni ochib qaragani ham yo‘q. Mahallaga kelganlar hokim yordamchisini, ayollar esa xotin-qizlar faolini yoki yigit-qizlar yoshlar yetakchisini so‘rab kelyapti va ishlarini bitirib ketyapti. Bu menga mahallani rivojlantirish, yangi “o‘sish nuqta”larini belgilash haqida yanada ko‘proq o‘ylash, muammolarni hal etish choralarini ko‘rishga imkon bermoqda.

Mahalla raisi bilan hududdagi bunyodkorlik ishlari, odamlarning dunyovqarashi va turmush tuzumidagi o‘zgarishlar, bunda o‘zini o‘zini boshqarish organlariga qaratilayotgan e‘tibor, vakolatlari kengaygani qanday o‘rin tutayotgani haqida qizg‘in suhbatlashdik.

— Gaplashsak, yarim kechgacha bu mavzu tugamaydi, — deydi rais. — Yaxshisi, o‘zgarishlarni joyiga chiqib ko‘ring.

Rais shu joyida “gap tamom” ma‘nosida o‘rmdan qo‘zg‘alib, qo‘li bilan “qani, ko‘chaga chiqaylik” ishorasini qildi. Mahalla binosidan chiqar ekanmiz, yo‘l-yo‘lakay tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan hamkorlikda tomorqadan samarali foydalanish bo‘yicha o‘tkazilayotgan seminariga taklif qildi.

— Tomorqadan samarali foydalanib, mo‘may daromad topayotgan, bozorlarimizni yil bo‘yi vitaminlarga boy mahsulotlar bilan ta‘minlab kelayotganlar safi kengaymoqda, — deydi mahalla oqsoqoli Imomqul Berdiyev. — Qalovini topsang, qor ham yonadi, deganlaricha bor. Odamlar ilgari, asosan, bahar va kuz oylarida qulupnay parvarishlagan bo‘lsa, hozir qishda ham

yarasha sir-sinoati bor, albatta. Yulduz ham maqsadi yo‘lida internet orqali qulupnayni ochiq dalada, issiqxonada yetishtirish usullarini o‘rgandi. Koreya va Yaponiya davlatlarida aholi hatto ko‘p qavatli uylarning tomda ham turli ko‘katu rezavor mevalar yetishtirayotganini ko‘rib, bu boradagi ahdi qat‘iylashdi.

— Yulduz Jabborova hovlisida issiqxona qurib, qulupnay yetishtirishni yo‘lga qo‘ymoqchi ekanini aytganida, ochig‘i, juda xursand bo‘ldim, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Umid Yunusov. — Chunki, birinchidan, bu boshqalarga ibrat bo‘ladi. Bu tajribani keng ommalashtirish orqali ko‘plab oilalar farovonligini ta‘minlash mumkin. Ikkinchidan, ularning oilasida hamma o‘zini o‘zi band qilgan, tijorat ishlari bilan mashg‘ul. Demak, ular bu ishni eplaydi. Lekin masalaning boshqa jihati bor. Ya‘ni ular qulupnayni faqat o‘z oilasi uchun yetishtirmoqchi edi. Shuning uchun tadbirkor fikrini o‘zgartirib, kattaroq issiqxona qurish orqali qulupnay yetishtirishni daromad keltiradigan yangi yo‘nalishga aylantirishga ko‘ndirdik.

Hokim yordamchisi bir vaqtlar bankda ishlagan, mijozlar bilan muomala qilishni yaxshi biladi. U Yulduzni mahallada issiqxona qurib, ikki yildan buyon qulupnay yetishtirayotgan Lapas Hasanov xonadoniga olib bordi. Lapas anakaning farzandlari usta, issiqxonani o‘zlari qurgan. Faqat isitish tarmog‘ini Vodiyan olib kelgan. Issiqxona tomchilatib sug‘orishga moslashtirilgan.

Bu oilaning bir sotix issiqxonadan olayotgan daromadi haqida eshitib, tijoratchi emasmi, Yulduz ham qiziqib qoldi. Shu zayil 2023-yilda 66 million so‘m kredit olib, yoniga 60 million so‘m o‘z mablag‘ini qo‘shib, gidroponika usulidagi 2,5 sotixli issiqxona qurdi. Hozir issiqxonada qulupnayning

Janubiy Koreyadan keltirilgan navi parvarishlanmoqda. Agroteknik tadbirlarning deyarli barchasi avtomatlashtirilgan. Suv mineral o‘g‘it va boshqa foydali elementlar bilan boyitilib, kompyuter dasturi asosida paykalga uzatiladi. Qulupnay gullarini changlatish ham o‘ziga xos usulda bajariladi.

— Qulupnay gullarini changlatishda Turkiyadan keltirilgan asalarilardan foydalanamiz, — deydi xonadon sohibi Dilshod Jabborov. — Chunki ular boshqalariga nisbatan samarali. Ya‘ni bir gulga qo‘nsa, to‘liq changlatib bo‘lmaguncha boshqasiga o‘tmaydi. Jaydari asalarilarimiz ham bor, ularning to‘rt-beshatasi birga qo‘nadi. Boshqa tomondan, Turkiya asalarisi mehnatkash. Issiqda ham, sovuqda ham ishlaydi. Issiqxonamizda besh mingga yaqin qulupnay ko‘chatlari bor. Har bir ko‘chatdan besh-olti oy davomida 400-500 gramm hosil olish mumkin. Nasib qilsa, bu yil yaxshigina daromad ko‘rishni rejalashtirgannmiz.

Qang‘lida qisqa davrda 40 ta xonadonda issiqxona qurilib, ishga tushirildi. Bir qismida rezavorlar yetishtirilsa, boshqalarida sitrus mevali daraxtlar, sabzavot va ko‘katlar parvarishlanmoqda.

— Davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan mahallaning ish uslubini tubdan o‘zgarimoqda, — deydi Umid Yunusov. — Agar “mahalla beshligi” joriy etilishi tufayli mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, o‘zini o‘zi band qilish orqali oilalarga daromad topish imkoniyati yaratilishini birinchi bosqich deb, farmondan kelib chiqib, mahallalarni taraqqiy ettirishning ikkinchi bosqichi boshlanganini sezish qiyin emas.

Endilikda “mahalla yettiligi” aholining o‘zini o‘zi band qilish yoki chorva, issiqxonalar sonini ko‘paytirish bilan chegaralanib qolmaydi. Hududni, tom ma‘noda, taraqqiy ettirish uchun barcha zarur choralarni ko‘radi.

Bir vaqtlar Qang‘li mahallasi ahli, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanardi. Keyingi yillarda mahalla hududi kengaydi, bu yerdan Jilzax MIZ hududiga yo‘l o‘tdi. Bir so‘z bilan aytganda, mahallaga kelib-ketuvchilar ham ko‘paydi. Shuning uchun xizmat ko‘rsatish shoxobchalari soni ham ortib bordi. Yangidan-yangi avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi ustaxonalar, kompyuter xizmati, oshxonalar, poyabzal ta‘mirlesh ustaxonalari, sartaroshxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, asosiy ichki yo‘llarga asfalt yotqizildi, qolganlari betonlashtirildi yoki shag‘al to‘shaldi. Ming tupdan ortiq daraxt ko‘chatlari ekildi. 150 o‘rinli davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti rekonstruksiya qilindi, davlat-xususiy sheriklik asosida 150 o‘rinli MTT qurilgani, beshita uy bog‘chasi tashkil etilishi hisobiga mahallada bog‘chaga qamrov 80 foizdan oshdi.

Agar chuqurroq muhohada qilinsa, mahalladan ayro birovta odam, korxona yoki tashkilot yo‘q. Boshqaruv, ma‘muriy idoralar, ishlab chiqarish korxonalari — barchasi mahallada joylashgan. Demak, hamma yo‘llar mahallada tutashadi.

Asad MUSTAFOYEV,
jurnalist



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Daxldorlik tuyg‘usi

ILMNI ALDAB BO‘LMAYDI

yoxud fayz-u baraka fidoyilik ortidan keladi

Avvalboshda hammasi mavhumdek ko‘rinadi. Biroq ilm qorong‘ida shu‘la sochib, yorug‘lik sarhadlarini kengaytiradi, o‘sha mavhumlikni bartaraf etadi. Ha, izlanuvchanlik, bilishga intilish insoniyat fitratidagi eng muhim fazilatdir. Bu fazilatni hayoti mazmuniga aylantirganlarni esa biz ziyolilar, ya‘ni ziyo ulashuvchilar, deymiz. Prezidentimizning 2023-yil 23-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zolarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, akademiklar qatoridan joy olgan olim — Qoraqalpoq davlat universiteti rektori Ahmed REYMOV ziyo ulashuvchi darg‘alarining navqiron vakillaridan biri.



bilmaganlarimni so‘rab, onamning holi-joniga qo‘ymasdim. Hatto uyda o‘zimcha tajribalar ham qilib ko‘rganman. Muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kichik chaqnashlar chiqqanman. Bexos yangragan ovozdan uydagilar yugurib kelar, men bu paytda allaqachon juftakni rostlab ulgurgan bo‘lardim.

Maktabni tamomladim. Keyin talabaliq, aspirantura, ilmiy faoliyat boshlanib ketdi.

— Talabaligingiz, aspirantlingiz mustaqillikdan keyingi o‘tish yillarida kechgan. Bu davrga kelib, yoshlar tugul, ilmda ancha-muncha yo‘lni bosib qo‘yganlar ham moddiy qiyinchilik sabab o‘zini boshqa jabhalarga uqinagan edi. Siz esa bu yo‘lda sabot bilan davom etdingiz...

— O‘zicha bo‘lgani yo‘q. Men bilan yelkama-yelka izlanish olib borayotgan ayrim do‘stlarimiz ham tugunini yig‘ishtirib, bozorga yoki tirikchilikning boshqa sohalariga o‘tib ketdi. Ammo qiyinchiliklar ortida yorug‘lik ko‘ra olsang, olg‘a yurishingda madad bo‘larkan. O‘zim tadqiqot olib borayotgan mavzuda yangilik qila olishimga ishonardim. Balki shu kuch bergandir... Keyin ustozlarimning hayoti ham menga namuna bo‘lgan. Ular ham bu mavqega oson yetishmaganini yaxshi bilardim. Murakkab va uzoq davom etadigan tajribalar paytida laboratoriyada yotib qolib, tuni bilan ishlardim. Ijobiy natijaga erishganimda sarflagan energiyam ortig‘i bilan qaytib kelgandek bo‘lardi...

— Ilmiy ishlaringiz asosida tayyorlangan loyihalar sanoatga tatbiq etilgani, ishlab chiqarishda yuqori natijalarga erishilgani haqida eshitgandik. Payti keldi: tadqiqotlaringiz yo‘nalishi, ahamiyati haqida ham aytib o‘tsangiz.

— Fanlar akademiyasining umumiy va noorganik kimyo institutida o‘tgan izlanish yillarini hayotimning eng muhim pallasi deb bilaman. Akademik Malik Nabiyeov asos solgan mineral o‘g‘itlar kimyosi ilmiy maktabining tolibi bo‘ldim. Zabardast olim, akademik Shafot Namozov rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib bordim. Izlanishlarimning bir qismi Xitoy va Hindiston davlatlarida ham davom etdi.

Endi ilmiy ishlarimning mavzusi va ahamiyati haqida soddaroq tushuntirishga harakat qilaman. Avval boyitilgan Qizilqum fosforitlarini kam me‘yorli nitrat kislotasi bilan qattiq fazali rejimda parchalash jarayonini o‘rganib, tarkibida fosfor, azot va suvda eruvchan kalsiy tutgan nitrokalsiy



fosfat ishlab chiqarish texnologiyasini yaratdim. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘simliklarning rivojlanishini yaxshilash, tanasini baqovvat va tashqi ta‘sirarga chidamli qilish edi. 2004-yilda shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildim. Ilmiy natijalarim asosida “Samarqandkimyo” AJda 316,5 milliard so‘mlik 600 ming tonnadan ziyod nitrokalsiy fosfat ishlab chiqarildi. 4,35 million dollar qiymatga ega bo‘lgan 30 ming tonna o‘g‘it eksport qilindi.

Undan keyin azot fosforli mineral o‘g‘itlar ustida ishladim. Bu o‘g‘itlarning ikki salbiy xususiyati mavjud edi. Birinchidan, tashqi ta‘sir tufayli tez qotib, foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qolardi. Ikkinchidan, portlash xususiyati kuchli edi. Bilamizki, dunyo miqyosida omborxonalarda yoki tashish jarayonida o‘g‘itlar portlashi ko‘p kuzatilgan. Izlanishlarimiz natijasida ammiakli selitra suyuqlanmasi va Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida jahon amaliyotida o‘xshashi bo‘lmagan, portlash xavfi kam ammiakli selitra ishlab chiqarishning original texnologiyasi yaratildi. “Navoiyazot” AJda shu asosda qiymati

240 milliard so‘m bo‘lgan 493 ming tonnadan ortiq azot fosforli o‘g‘it ishlab chiqarildi, jumladan, qiymati 7,8 million dollardan ortiq 36 ming tonna o‘g‘it xorijga eksport qilindi. Doktorlik ishimning mavzusi shu bo‘ldi.

Ilm yo‘liga kirgan odam bir natijaga erishib to‘xtab qolmaydi, faqat ilmiy darajayu ilmiy unvonlar uchun ishlamaydi. Undan keyin ham mineral o‘g‘itlar sifatini yaxshilash borasida izlanishlar qildim, u texnologiyalar ham sanoatimiz rivojiga hissa qo‘shganidan mamnunman. Jarayon to‘xtamaydi, endi izlanishlarimiz keng ko‘lamda davom etmoqda.

— Katta bir universitetda rektorsiz, zimmadagi vazifani uddalash oson emas. Hali ellikka kirmay, ilmiy darajayu unvonning eng yuqori bosqichlariga sazovor bo‘lib ulgurdingiz. Siz rahbarlik qilasiz, qolganlar ishlasa kerak, deb o‘ylayotgandim. Eshitganim teskarisi bo‘ldi, ishlayotganingizni, ilmiy izlanishlardan to‘xtamayotganingizni aytyapsiz.



— Meshchan odam martaba, boylik topishi mumkin, lekin baraka topmaydi. Ilmni vosita qilib, amal kursisini ko‘zlaganlar ko‘p bo‘lgan, hozir ham yo‘q emasdir, lekin ular faqat o‘zlarini, atrofidagi to‘rt-besh nodonni aldaydi, ilmini aldolmaydi. Ilmdan fayz, baraka topish uchun odam o‘zini unga bag‘ishlashi kerak. Ilm kerak bo‘lmagan zamonlarni ko‘rdim, shunda ham haqiqiy olimlar fanda nendir yangilik qilish, kashf etish ilinjida yashadi. Hozir sharoit yaratilayotgan, ilmiy izlanishlar rag‘batlantirilayotgan davrda yangi natijalarga erishgning kelaveradi, ayniqsa, ular Vataning, xalqning uchun naf keltirsa.

To‘g‘ri, rektorlik ham oson emas. 2017-yili bu lavozimga kelganimda universitetda 9 mingga yaqin talaba tahsil olardi, hozir ularning soni 30 mingga yetdi. Talabalarning yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishiga men mas‘ulman. Undan tashqari, qancha tashkiliy masalalar bor, adog‘i yo‘q. Lekin bir narsani his qildim, turg‘unlikda hech ish qilmay charchash mumkin ekan, imkoniyat berilib, natija so‘ralsa, shiddat bilan ishlashga, yashirin imkoniyatlarini ishga solishga o‘rganar ekanman.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida universitetimizda bir necha ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini barpo etish taklifini kiritgandik. Taklifimiz ma‘qullandi, mablag‘ ajratildi. E, undagi quvonchimni, baribir, ifodalab berolmayman. O‘quv laboratoriyalaridan farqli ravishda ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida katta kashfiyotlar qilish, haqiqiy ilmiy muhit yaratish imkoni paydo bo‘ladi. Hozir shu laboratoriyalarni barpo etib, ishga tushirish uchun yelib-yugurib yuribmiz.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini fosforli o‘g‘itlar bilan ta‘minlashda yetishmovchiliklar mavjud. Shuning uchun ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarimiz ishga tushgunga qadar ham shogirdlar bilan birgalikda mahalliy xom-ashyodan foydalangan holda mineral o‘g‘itlar olish texnologiyasi ustida ishlayapmiz.

Yukni nor ko‘taradi, deydlar. Ilmiy salohiyatimning xalqimizga nafli tegayotgan

ekan, zimmadagi boshqa bir vazifani bajaryapman-ku, deb izlanishlardan to‘xtab qolishga haqqim yo‘q.

— Universitetda erishilgan yutuqlar haqida ham gapirsangiz.

— Arziguliklari haqida so‘rayapsiz-da? Ma‘qul. Aslida, statistikaga tobim yo‘qroq, sanoq bilan odamlarning vaqtini o‘g‘irlagim kelmaydi. Muhimlari haqida gapiray, Oliy ta‘lim muassasalariga berilgan moliyaviy mustaqillik tufayli moddiy-texnik bazamizni havas qilari darajaga keltirib oldik. Ilmiy salohiyat oshyapti, universitet pedagog xodimlari orasidan 2017-2023-yillar mobaynida 24 nafar fan doktori (DSc), 226 nafar falsafa doktori (PhD) yetishib chiqdi.

Kelganimda universitetda ilmiy darajalar beruvchi 1 ta ilmiy kengash mavjud edi, pedagoglar dissertatsiya yoqlash uchun respublikamizning turli hududlarida, olis manzillarda sarson bo‘lib yurishiga o‘g‘ri kelardi. Bugun universitetimizda 11 ta ilmiy kengash faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Xorijdagi 50 dan ortiq ilmiy muassasa va oliy o‘quv dargohlari bilan hamkorlik qilyapmiz, dars jarayoniga 98 nafar chet ellik professor-o‘qituvchini jalb etganmiz.

Buni qarab, javobim yana statistik ma‘lumotlardan iborat bo‘lib qolyapti. Umuman olganda, ta‘lim sifati yaxshilandi, talabalar uchun yangi turar joy binolari bunyod qildik, bir qator ixtiro va foydali modellarni uchun olingan patentlar hamda dasturiy mahsulotlar uchun mualliflik guvohnomalarini qo‘lga kiritmoqdami. Eng muhimi, milliy va xalqaro reytinglarda universitetimiz sezilarli darajada yuqori po‘nalarga ko‘tarildi. Endi bu muvaffaqiyatlarga jamoaviy intilish orqali erishilishi ma‘lum. Mening yutug‘im esa ularda shu intilishni uyg‘ota olganimda, deb bilaman.

— Hamma gap shunda-da, domla. Sharoit zo‘r bo‘lsa-yu, ishtiyiq, intilish bo‘lmasa, inson hech narsaga erisholmaydi, inchunin, jamoa ham. Kiroyi rahbarman degani ishtiyiq uyg‘otishni bilsa bas, muvaffaqiyatlar o‘zi yo‘l topib keladi.

Ko‘ryapmizki, kelajakdagi maqsadu niyatlarimiz ko‘lami tosh bosadiganga o‘xshayapti. Xo‘shlashuv chog‘ida ayrimlaridan bizni voqif etsangiz, zarar qilmasdi...

— O‘zbekistonda katta ilmiy maktablar bor, lekin hammasi poytaxt Toshkentda joylashgan. Ustozlar ko‘magida shu ilmiy maktablarning filiallarini Qoraqalpog‘istonda ham shakllantirsam, deyman. O‘zim mashg‘ul bo‘lgan soha — mineral o‘g‘itlar kimyosi ilmiy maktabidan boshlayapman ishini. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli moddiy-texnik baza, olimlar, tadqiqotchilar zaxirasi paydo bo‘lyapti. Qolaversa, ilm qo‘ldan-qo‘lga o‘tmasa, rivojlanish haqida gapirish erish tuyuladi. Shuning uchun ilgga o‘zini baxshida eta oladigan shogirdlar tayyorlashni ham eng asosiy burchim, deb hisoblayman.

Sirojiddin IBROHIM suhbatlashdi.

Hamkorlik

ZAMONAVIY KADRLAR UCHUN MUHIM IMKONIYAT

Sadoqat SIDDIQOVA, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Buxoro azaldan ilm-fan o‘chog‘i, buyuk olimlar, mutafakkirlar yurti sanaladi. Madaniy, diniy, etnik sivilizatsiyalarning betakror aralashuvi Buxoroni unutilmas taassurotlar go‘shasiga aylantirdi. Ayni damda ko‘hna shaharning nufuzli oliy ta‘lim muassasalari o‘zlarining ilmiy yutuqlari, olamshumul nazariyalari bilan mashhur.



Bunga Buxoro muhandislik-texnologiya instituti yoshlari ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ayniqsa, institutning ta‘lim sifati, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, bandlik va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida

namunali oliy ta‘lim muassasalaridan biri sanaladi.

Institutimizda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirildi. Birgina o‘tgan yilning o‘zida 25 dan ziyod xalqaro oliy ta‘lim muassasalari

bilan hamkorlik qilish bo‘yicha shartnomalar imzolandi. Jumladan, O‘zbekiston — Turkiya II ta‘lim forumida institutimiz Turkiyaning 9 ta oliy ta‘lim muassasasi, jumladan, Artvin Chorum, Istanbul texnika, Marmara, Ege, Burdur Mehmet Akif Ersoy universitetlari bilan hamkorlikni boshlab yubordi. Shu bilan birga, Isparta amaliy bilimlar, Xajettepe, Yalova universitetlari o‘rtasida ham qo‘shma fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bo‘yicha hamkorlik bitimlari imzolandi.

Xitoyning Yangchou politexnika instituti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Novomichurinsk katalizator zavodi (NKZ) o‘rtasidagi hamkorliklar ham shular jumlasidan.

Ayni paytda Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti bilan tuzilgan shartnomaga asosan, talaba almashinuvi va professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish, ilmiy metodik konferensiya, forum, seminarlar, shuningdek, stajirovka dasturlarini o‘tkazish bo‘yicha hamkorlik doirasidagi ishlaraga start berildi. Novomichurinsk katalizator zavodi bilan hamkorligimiz natijasida esa endi talabalarning

tadqiqot ishi himoyasida ikki tomon ham mutaxassis sifatida qatnashishi mumkin.

Madaniyatlar, an‘analari, mentalitet va qadriyatlarining o‘xshashligi bois, mamlakatimiz va Xitoyni uzviy tarixiy rishtalar bog‘lab turadi. Shu nuqtayi nazaridan, tomonlar xalqlar o‘rtasidagi ta‘lim bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda.

Joriy yilning yanvar oyida Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Xitoy ta‘lim forumi doirasida mamlakatlar oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida ikki tomonlama 70 ta hujjat imzolandi, beshta oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida qo‘shma ta‘lim dasturlarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Qo‘shma ta‘lim dasturi asosida 300 dan ziyod talaba Xitoyning ilg‘or universitetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, 100 dan ortiq talabamiz uchun grant dasturlarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Forumda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va Xitoyning 6 ta oliy ta‘lim muassasasi bilan hamkorlik o‘rnatildi. Xususan, Loyang Normal universiteti bilan memorandum



imzolangan bo‘lib, uning asosida ikki muassasa o‘rtasida bakalavrlar “2+2” hamda magistrlar “1+1” qo‘shma ta‘lim dasturi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu dastur bo‘yicha 2024/2025-o‘quv yilida jami 30 nafar bakalavr hamda 10 nafar magistrni energetika yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish ishlari tashkil etiladi. Sin Tzyan ta‘lim muassasasi bilan oliy ta‘lim muassasamiz bazasida Kimyoviy va oziq-ovqat mahsulotlari sinovi laboratoriyasi tashkil etilishi ko‘zda tutildi.

Bundan tashqari, Tyan Tzin Sino — Germaniya universiteti bilan ham kelishuvlar imzolandi. Institutimiz bazasida “Energoaudit” laboratoriyasi ham tashkil etiladi. Mazkur universitet tomonidan kerakli zamonaviy laboratoriya qurilmalari bilan ta‘minlash rejalashtirilmoqda.

Yanchjou politexnika instituti bilan qo‘shma ta‘lim dasturini amalga oshirish uchun

avtomatlashtirish, elektrotexnika, robototexnika hamda qayta tiklanuvchi poytaxt Toshkentda joylashgan. Ustozlar ko‘magida shu ilmiy maktablarning filiallarini Qoraqalpog‘istonda ham shakllantirsam, deyman. O‘zim mashg‘ul bo‘lgan soha — mineral o‘g‘itlar kimyosi ilmiy maktabidan boshlayapman ishini. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli moddiy-texnik baza, olimlar, tadqiqotchilar zaxirasi paydo bo‘lyapti. Qolaversa, ilm qo‘ldan-qo‘lga o‘tmasa, rivojlanish haqida gapirish erish tuyuladi. Shuning uchun ilgga o‘zini baxshida eta oladigan shogirdlar tayyorlashni ham eng asosiy burchim, deb hisoblayman.

Yana bir ma‘lumot: Xitoy Xalq Respublikasining Loyang shahrida joylashgan “Dayang” kompaniyasi bilan institut bazasida elektroskuterlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha dastlabki muzokaralar olib borildi. Bu bo‘yicha shartnoma imzolash rejalashtirildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda kechayotgan ictchil islohotlar epkinida institutimizning xalqaro hamkorlik doirasidagi faoliyati keng quloch yoymoqda. Bu esa nafaqat talabalar, balki biz — pedagoglarni ham bilim doiramizni yanada kengaytirish, hamjihatlikda istiqbolli loyihalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish imkonini beradi.



21-fevral – Xalqaro ona tili kuni

SO'ZNING SEHRINI UNGA MEHR QO'YGANGINA ANGLAYDI

Rahimboy JUMANIYOZOV,
“Notiqlik san’ati akademiyasi”
ta’lim muassasasi rahbari,
professor

Yosh avlodga berilayotgan ta’lim-tarbiya sifati pedagogning madaniyati ko’proq bog’liq. Bu o’rinda adabiy til va shevalarimizga xos xususiyatlarni qo’llash madaniyatiga to’xtalish lozim. Ha, adabiy til me’yorlarini buzmasdan qo’llash

Ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan bo’lishi o’ta muhim masaladir. Bu esa o’z-o’zidan pedagogning kommunikativ kompetentlik darajasiga borib bog’lanadi. O’z fanini chuqur bilgan, nazariy jihatdan puxta, bo’yi barobar kitoblari, o’quv qo’llanmalar va darsliklar yozgan mutaxassislar bor. Ularning ayrimlari minbar, mikrofon va videokamera orqali auditoriyaga yuzlansa, qo’rquv va hayajonga tushadi, bilganini ham aytmay, fikri poyintar-soyintar bo’ladi. Endi tasavvur qiling: o’z faniga, mavzuga qiziqitira olmagan, ta’lim ta’sirchanligiga rioya etmagan pedagog qanday qilib o’quvchiga yetarli bilim beradi? U qanday yo’l bilan tinglovchi, talabani mahliyo etishi, o’ziga, so’ziga ergashтира olishi mumkin?

Qaysi sohada faoliyat yuritmaylik, qaysi fandan dars bermaylik, nutq madaniyati va notiqlik san’atini egallash zarur. Zero, bu ta’limning sifati va samarasini belgilovchi



ulardan o’sha videorolikning syujetini aytib berish hamda olgan taassurotlarini so’zlab berishi so’raldi. Ularning birinchisi shunday gapirdiki, xuddi antenasi yaxshi ishlamaydigan televizordagi tasviri “bijir-bijir” bo’lib, nima berilayotganini anglash qiyin bo’lgandek taassurot uyg’otdi. Ikkinchisi gapirganda, oq-qora rangli televizorda tasvir ko’rgandek bo’ldi. Uchinchi rangli televizorda tomosha qilgandek taassurot bergan bo’lsa, to’rtinchisi 3D, 5D, 7D formatli tasvirda ko’rgandek his-tuyg’umizga ta’sir etdi.

Demak, to’rtovlon bir joyda bir xil narsani ko’rib gapirgan bo’lsa-da, ularning taxayyul, tasavvur va tafakkur tarzi hamda tildan foydalanish darajasi har xil. Odatda so’zlovchilarning farqi uchta tushunchani qay darajada qo’llashiga bog’liq. Bu so’zlash, tinglash va anglashdir. So’zlash ma’rifatdan, tinglash madaniyatdan, anglash ma’naviyatdandir. Pedagogning nutqi ana shularning uyg’unligi va ta’sirchanlik darajasi



muhim omildir. Ta’bir joiz bo’lsa, insonni butun bir ta’lim tizimi sifatida tasavvur qilsak, uning vena va arterial qon aylanish tizimini nutq madaniyati va notiqlik san’atiga qiyos qilsa bo’ladi. Demak, ta’lim tizimining qon tomiri va jon tomiri notiqlik mahoratiga asoslangan pedagogning kommunikativ kompetensiyasidir. Xalqimizning “O’zingga qarab kutarlar, so’zingga qarab kuzatarlar”, degan naqli bejiz emas. Insonning ikki og’iz so’zidayog’ uning bilim-saviyasi, ma’naviyati, dunyoqarashi, tabiati, tiynati — xarakteri namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham pedagogning nutqi va xulqi madaniyati ulug’vor maqsadlarimizni, ta’lim tizimidagi istiqbolli rejalarni amalga oshirishda muhim qurolidir.

Ta’limning kaliti nutq bilan, tarbiyaning kaliti xulq bilan bo’lgandek, muloqotning kaliti — nutq, muomalaning kaliti xulq bilandir. Nutqi va xulqi madaniyatga ega bo’lmagan shaxsni komil inson, avlodni barkamol avlod, deb bo’larmikan? Ana shu ma’naviy hamda ma’rifiy ehtiyojni nazarda tutgan holda o’qituvchi va o’quvchi orasidagi oltin zanjir — muloqot va muomala madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan “Notiqlik san’ati akademiyasi” ta’lim muassasasi tashkil etilgan edi. O’rgan yili o’quv muassasamizda bir tajriba o’tkazildi.

To’rtta o’qituvchini bir joyga chaqirib, ularga ijtimoiy mazmundagi besh daqiqali videorolik qo’yib berildi. Keyin alohida-alohida

bilan baholanadi. Mashhur yunon notig’i Gorgiy fikricha, so’zlovchining eng muhim vazifasi tinglovchini ishonitirish, uni maftun etish va o’ziga rom qilishdan iborat. Rom etish, tabiiyki, nutqning ta’sirchanligiga bog’liq.

Pedagog xoh ilmiy, xoh publitsistik, xoh badiiy xarakterdagi ma’ruzani yetkazishda uning ruhiy holati — goh osoyishta, gohjo’shqin bo’lishi, bayon ohangi ifoda etilmogochi bo’lgan mazmuniga qarab turlanib turishi zarur. Shu bois, amerikalik ruhiyatshunos Deyl Kamegi “Qalb harorati bilan sug’orilmagan nutq hech nima, notiq esa hech kimdir”, degan.

Afsuski, keyingi paytlarda muloqot va muomala jarayonida so’zni istifoda etishda adabiy til qoidalari va me’yorlariga rioya etmaslik holatlari uchrayapti. Bu esa savodxonligimizga putur yetkazibgina qolmay, ma’naviyatimiz tanazzuliga zamin hozirlashi mumkin. Savodxonlik ikkita asosga tayanadi. Bu og’zaki va yozma nutq savodxonligidir. Har ikkalasini qo’llashda yetarli va aytarli kamchiliklarimiz bor. Bundan ko’z yumsak, befarq va loqayd bo’lsak, kelajak bizni kechirmaydi. Savodxonlik tugul, o’z fikrimizni erkin tarzda bayon eta olish uquviga ham ega emasmiz. “Men tilchi emasman, muhandisman yoki dasturchiman, chiroyli so’zlay olmayman”, degan bahonalar kulgili. Hammada iste’dod uchquni bor, uni alangaga aylantirish uchun qunt, ixlos, qiziqish, hafsa, aniqrog’i, o’zni

qiydash yetishmaydi. Sidqidildan harakat qilinmasa, natija ham, samara ham bo’lmisligi aniq.

Bir oy davomida “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-musiqiy dasturlarda barchamiz targ’ibotchi sifatida ishtirok etdik. Mahalla a’zolarining aksariyati tadbirga o’z ixtiyori bilan, jon qulog’i bilan eshitishga kelmagan ham sir emas. Bunga bois, targ’ibotchining zerikarli nutqi va targ’ibotning ta’sirchan mexanizmi yaxshi ishlamaganidir. Yutuqlarimiz bilan birga kamchiliklarimiz, nutqiy nuqsonlarimiz ham borligidan ko’z yumib bo’lmaydi.

So’zning sehrini unga mehr qo’ygancagina ilg’aydi. So’z ma’nolarini bilmaslikdan anglashilmovchilik kelib chiqadi. Hatto davlat tizimida mas’ul vazifalarda ishlovchi ayrimlarning nutqida vulgar so’zlar ishlatilgani ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo’lganini ham bilasiz.

Mulohaza o’rinda aytish joizki, biz ayrim yoshlar ularning ta’siriga tushib qolishiga birlamchi sabab sifatida beriladigan moddiy mablag’ni, pulni sabab qilib ko’rsatdik. Ayrimlari pulga o’chlik yoki muhtojlikdan shu yo’lga tushib qolgan, deb o’zimizga tasalli bergan bo’ldik, moddiy manfaatdorlikni ro’kach qildik. Vaholanki, ularning aksariyati o’ziga to’q oilalarning farzandlari. Hali hayot haqida keng tajriba va bilimga ega bo’lmagan yoshlar bunday ko’yga tushishi mumkin, deb o’zimizni ovutdik.

To’g’ri, bu holatni inkor etish qiyin. Lekin masalaga chuqurroq va teranroq yondashadigan bo’lsak, o’zgacha manzara namoyon bo’ladi. Ochig’ini aytish lozimki, ularga saboq beradiganlar voizlik, ya’ni notiqlik san’atini obdan egallaganlardir. Ular so’zining ta’siri kuchli, aniqrog’i, jonli so’zni topib, tanlab, kishi ruhiyatiga bog’lab, eshituvchini ko’rinmas iplar bilan bog’lash iqtidoriga ega. Hazrat Navoiyning “Dushman maqoloti — bang xayoloti” degan hikmatiga e’tibor qiling. Dushmanning hiylanayranglari, shirin so’zi, aldovi kishini bang chekkandek garangsitib tashlashi mumkinligiga ishora bor unda. Odamni so’z ta’sirida zombiga aylantirish, manqurt holatiga keltirish ham mumkin.

Psixologvistikada bu holat allaqachonlar e’tirof etilgan. Inson miyasi bosh qog’ib’ida 86 milliard neyron to’qimasi bor. Har soniyada hujayralar bir-biriga minglab axborot tashiydi. Noto’g’ri, asossiz, uydirma fikrlar virus kabi inson miyasini zaharlaydi. Natijada dunyoqarashda keskin o’zgarish boshlanadi. Keling, bir misol keltiraylik.

Ilyuzion o’yinlar ko’rsatuvchi shaxsning harakatiga, manipulyatsion mashqlariga qarab, hayratdan yoqa ushlaymiz. Biz eplay olmaydigan harakatlarni qilib, har xil usulda fokuslar ko’rsatadi. U shu yo’l bilan ko’zimizni bog’laydi. Garchi ishonmasak-da, o’zimiz anglamagan holda hayratlanish asnosida uning sehrli doirasiga tushib qolganimizni bilmaymiz. Shuning uchun ham u ko’z bog’lay’ichdir. Notiq esa so’z bog’lay’ich. U so’z sehgari va sinchisi. Fokuschi oddiy tomosha bilan ko’zni bog’lasa, voz ta’sirchan so’zi bilan miyani bog’laydi. Shuning uchun ham ular ta’siriga tushgan “miyasi bog’langan”lar o’z ota-onasiga borib, “kufr va to’g’ri yo’l” haqida va’z aytishdan tap tortmaydi. Go’yo ota-ona bolani emas, bola ota-onani “tarbiya”layotgandek g’alati taassurot paydo bo’ladi. So’z sehiri, ta’siri va doirasiga e’tibor kuchli bo’lmas ekan, milliy g’oya mohiyatini yetkazish, targ’ib etishda o’z qolishimiz shubhasiz.

Shuning uchun o’rgan yili 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig’ilishida davlatimiz rahbari xalq, vatan taqdiriga turli tahdidlar bo’lib turishi haqida gapirib, unga qarshi uyg’oq ziyolilarni chorlagani, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashga olish mexanizmi borasida to’xtalgani bejiz emas. Tilning turli imkoniyatlari, nutqning ifoda vositalaridan foydalana olishni biladigan notiq-targ’ibotchilar maktabini yaratish kerakligini davrning o’zi taqozo etmoqda.

“So’zdan so’zning farqi bor, o’ttiz ikki narxi bor”. Bu maqol so’zlovchiga ham daxldor. Gap so’zni qanday aytish va yetkaza olishda. Kitob nutq va fikr manbai ekanini, fikrni emas, fikrlashni o’rganish va o’rgatish muhimligini doimo yodda tutish zarur.

Samixon ASHIRBOYEV,
filologiya fanlari doktori

2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig’ilishida davlatimiz rahbari ma’naviy-ma’rifiy sohada oldimizda turgan muhim masalalar, xususan, til muammolariga jiddiy munosabat bildirdi.

Endi bir savol tug’iladi: “Nega boshqalar biror xorijiy tilni o’rgansa, o’sha til ruhiyatiga kirib ketmaydi?” Biz, o’zbeklarda esa buning aksini ko’ramiz. Aytaylik, chet davlat tilini yaxshi o’zlashtirgan shaxs go’yo o’zini o’sha yurtda yurgandek his qiladi va ularga yuksak muhabbat bilan munosabatda bo’ladi, ularning “esi, dardi” o’sha yurt va el bo’lyapti.

Aslida, biror xorijiy tilni puxta o’rganmoqni niyat qilsangiz, mukammal o’rganing,

va talab qilishimiz lozim. Hatto ularni cheklash ham kerakdir, chunki bunday liboslar milliy o’zligimizni asrash va ma’naviyatimizni yuksaltirishga monelik qiladi. Bu fikr shahar transportidagi yozuvlarga ham tegishlidir.

Tilimizni sevish tildan foydalanish madaniyatiga ko’proq bog’liq. Bu o’rinda adabiy til va shevalarimizga xos xususiyatlarni qo’llash madaniyatiga to’xtalish lozim. Ha, adabiy til me’yorlarini buzmasdan qo’llash

Hokim Yo’ldoshev olgan surat.

BUGUN MA'NAVİYAT BOSHQA SOHALARDAN O'N QADAM OLDINDA YURISHI KERAK

O’zbekman, degan kishi o’z tilini o’zidan ko’ra ko’proq e’zozlashi kerak. Tilimizni e’zozlash, uning softligi uchun kurashish bizning milliy burchimiz. Milliy tilimiz bizning o’zligimiz. Hozir davlat tilini faqat og’izda targ’ib qilib yuradigan davr emas, balki amaliy ishlarga o’tish lozim.

Baralla ayta olamiz: tilimiz jiddiy islohotga muhtoj emas, bu til yirik tadqiqotlar, siyosiy, iqtisodiy va madaniy asarlar yozishga, fikrni, ichki tuyg’ularni to’la ifodalashga, nutqiy aloqa jarayonini tashkil etishga qodir va nozik tabiatli, rivojlangan tildir. Bu haqiqatni yuragimiz tubida saqlashimiz va hech qachon unutmasligimiz dardkor.

Prezidentimiz davlat tilining nufuzini xalqaro miqyosda oshirish masalasini o’rtaga tashlar ekan, uni dunyo tanqididan til darajasiga ko’tarish, uning me’yorlarini yanada charxlash, dunyo ahli shunday til borligini va davlatimizga turli muammasabatl bilan kelayotgan shaxslar bu tilni hurmat qilishi va uni o’rganib kelishi kabi maqsadlarni ko’zda tutib aytgani tayin. Ushbu ulug’vor g’oyalarni anglash uchun esa tilimizni sevish va yana sevish kerak. Sevish insonning ichki ma’naviyati bo’lib, u bolalikdan shakllanishi zarur. Bu tuyg’u barchaga barobar ekanini anglab yetish vaqti kelgan. Ya’ni vaqtida boshqa tilda bilim olgan va o’sha tilda ish ko’rayotganlar endi o’zbek tiliga erinib emas, balki sevib o’tishiga o’zida kuch topishi davr taqozosidir. O’rganigan tillari esa hech qachon behuda ketmaydi.

Yana bir masala. Aksariyatimiz boshqa tillarda bilim olganmiz, keyingi davrda yoppasiga chet tillarini o’rganishni boshladik, oqibatda o’zbek tilini chetga surib qo’yomqdamiz. Ushbu fikrlardan ayrimlar bu kishi xorijiy tillarni o’rganishga qarshi bo’lsa kerak, degan o’yga borishi mumkin. Yo’q, aslo unday emas. Aksincha, til o’rganish bizning ma’naviyatimiz belgisi ekanini ta’kidlagan bo’lar edim. Xorijiy tillar vositasida dunyo ilmi, siyosati, iqtisodidan boxabar bo’lish, boshqa mamlakatlar yutug’idan foydalanish g’oyat ahamiyatli ekanini barchaga ayon.

Unda gap nimada? Tajriba shuni ko’rsatadiki, farzandlarimiz qaysi xorijiy tilni durustgina egallagan bo’lsa, ularning ruhiyati o’zgarib, o’sha tili davlatga mehr qo’ya boshlamoqda. Eng yomoni, o’z tili va Vatanga nisbatan munosabat salbiy tomonga o’zgarayotir. Bu tabiiy, chunki til kishi ruhiyati bilan bog’liq bo’lgani uchun ularda o’zi o’rganigan tilga ham mehr uyg’onadi. Binobarin, jahon tillaridan birini yaxshi biladigan kishiga o’zbek tili jo’n, qolqoq til tasavvurini berishi mumkin. Bu bolalikda olgan tarbiya, paydo bo’lgan ruhiy jarayon va muhit kayfiyati bilan bog’liq.

shuningdek, ushbu til orqali shu millatning tili va dinini hurmat qiling, lekin bu tillar sizning ruhiyatingizni o’g’irlamasin. Buning iloji bormi? Yoshi kattalarda bu kayfiyatni vujudga keltirish mushkul. Bu masalada kattalar o’z vijdoniga yarasha yondashsin. Xorijiy tilni o’rganayotgan umumta’lim, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o’quvchilarida va oliy ta’limda mutaxassis bo’lib yetishayotgan yosh avlodda bunday bilimni shakllantirish va tarbiyalash imkonini bor, biroq uni topish kerak. Bizning nazarimizda, uning birdan-bir kaliti til o’rganishda uning qalбини himoya qiladigan, qalбини egallayotgan ruhiyatga qarshi immunitetni tarbiyalaydigan ilm zarur, puxta tarbiya kerak. Mana shu tarbiya va ilm yetishmasligi tufayli til o’rganish jarayonida yoshlarimizning Vatanimizga va ona tilimizga muhabbati boy berilmoqda, ma’naviy dunyosi buzilib ketmoqda.

Bunday ilm-fan bormi? Bor. U “Milliy psixologiya” va “Milliy pedagogika” deb nomlanadi. Bu fanlar amalda bor, lekin hozircha uning mazmunida til o’rganishda milliy immunitet degan mazmun yo’q. Ko’rinadiki, uni til o’rganishga yo’naltirish lozim bo’ladi, ya’ni jahon tillari ta’limini amalga oshiruvchi oliy ta’lim muassasalar uchun bu fanni ta’lim mazmuniga singdirish talab etiladi. Aks holda, bel kelgusi avlodning katta qismida o’zbekona ruhiyatni yo’qotamiz.

O’zbek tilini sevishga olib keladigan har qanday choralarini ko’rish zarur. Bu ham ahamiyatli. Bizning nazarimizda, xorijdan olib kirilayotgan har qanday mahsulotni milliyilashirish asosida xalqqa yetkazishga ehtiyoj katta. Sir emaski, ayniqsa, yoshlarda (ba’zan kattalarda ham) allambalo yozuvlar, rasmlar (hatto uyatli) aks etgan libos kiyish “moda”ga aylanib ulgurdi. Avvalo, bu holatni ma’naviyatimizga urilgan bolta deb tushinib kerak, eng yomoni, o’zi tushunmaydigan yozuvli kiyimlarni kiyib yurish go’yo ularga “g’urur” bag’ishlaydi. Vaholanki, xorijiy tildagi bu yozuvlar shunchaki bezak uchun emas, balki ma’lum bir g’oyalarni keng yoyish, shu orqali muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun ekanini kundek ravshan-ku’!

Axir qanday yozuv orqali mahsulot ishlab chiqargan mamlakatga ko’r-ko’rona muhabbat uyg’otish, uning g’oyalarni targ’ib qilish ekanini shu kiyim egalari va ularni yurtimizga keltirib, mo’may daromad olayotganlar yaxshi anglashi kerak. Ko’rinishdan arzimas, lekin, aslida, oz-ozdan tilimizning softligi va ma’naviyatimizga putur yetkazayotganini anglab yetishimiz kerak. O’sha yozuvli ust-bosh kiyish ma’naviyatimizni asta-sekin tubanlashtirishini, oxir-oqibat o’zligimizdan uzoqlashtirishini to’g’ri tushuntira olishimiz

kerak bo’lgan o’rinlar barchaga ma’lum. Ilmiy ishlar, rasmiy axborotlar, ta’lim tizimi, badiiy adabiyotda muallif nutqi adabiy tilda bo’lishi shart. Faqat istisno sifatida badiiy adabiyotda lozim o’rinlarda sheva unsurlaridan foydalanish mumkin. Adabiy til o’ziga yarasha yuqori uslub, deyiladi. Endi quyi uslub — shevalarimiz haqida, undan foydalanish madaniyati haqida so’z yuritishga ehtiyoj bor. Men esimni tanibmanki, radio va televideniya, majlisu yig’inlardagi nutqlarda sheva unsurlari uchraib qolsa, tanbeh berilar edi, lekin baribir hech kim adabiy tilga to’liq rioya qila olmasdi. Hozir ham shunday. Demak, biz shevadani qochib qutula olmaymiz. Albatta, barcha yozuv ishlarimiz adabiy tilda olib borilishi shart. Tilning bu shaklini adabiy til talab qilindigan, ya’ni ta’lim jarayoni, radio va televideniyaedagi rasmiy matnlar o’qilishida ham qo’llash shart, lekin og’zaki nutqda sheva boyliklaridan foydalanishni cheklash o’rinli emas, chunki sheva adabiy tilimizning asosi, ona tilimizning o’zagidir. Aslida, shevalarimiz boyligini adabiy tilda tobora aks ettirib borish barcha ziyolilarning ishi bo’lishi kerak.

Har kimning o’z shahri, tumani, qishlog’ida shevada gaplashishi ham madaniyat belgisi. Markaziy shaharda yashab qolgan kishining qishlog’iga borganda faqat adabiy tilda muomala qilishini tasavvur qilib ko’ring. Bu o’sha yerliklar uchun, avvalo, odobsizlik, qolaversa, odamlarning g’ashiga tegishi mumkin. Binobarin, o’zbek tilini sevish o’z shevasini sevishdan boshlanishini unutmaylik.

E’tibor qilsangiz, davlatimiz rahbari xalqimizdan hech narsani yashirayotgani yo’q, borini bor, yo’g’ini yo’q, demoqda. 8-10 yil ilgari hatto shivirlab gapirishga ham qo’rqilgan kamchiliklar, xatolar ro’y-rost aytilyapti. Ma’rifiy-ma’naviy sohalardagi muammolar ham bundan mustasno emas. Bu haqda gap ketganda, Prezidentimizning “Ta’kidlab aytmoqchiman: bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o’n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart”, degan so’zlarini eslash kifoya. Yoki “Mamlakatimiz o’z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jaded bobolarimiz kabi g’arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suz va havoddek zarur”, degan da’vatlari bizni, barchamizni bir maqsad yo’lida, yagona orzu atrofida birlashtirishi zarur. Bu — yangi O’zbekiston orzusi, xalqimizning hech kimdan kam bo’lmagan zamonaviy sharoitlarda yashashiga erishish maqsadi. Buning uchun esa o’z yurtini sevadigan, ona tilini yuksak qadrlaydigan yangi ruhiyatdagi kadrlar kerak.

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 509.
9800 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhirlar: Asliddin Abdurazqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘ZA yakuni — 22:15 Topshirildi — 22:55